ISSN 218-8088

XALQ TA'LIMI AXBOROTNOMASI

"XALQ TA'LIMI AXBOROTNOMASI" JURNALI

Muassis:
"Xalq ta'limi" jurnali tahririyati DUK

PUBLIC EDUCATION BULLETIN

"PUBLIC EDUCATION BULLETIN" JOURNAL

2024

4-son
(Iyul-Avgust)

Jurnal 2015-yildan chiqa boshlagan

(O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2014-yil 17-maydagi
137-sonli buyrug'i bilan tashkil etilgan)

TOSHKENT

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 1-apreldagi PF-55-son Farmoni ijrosi haqida”gi **2024-yil 5-aprel, 118-son buyrug‘i 4**

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijod maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 1-apreldagi PQ-147-son qarori ijrosi haqida”gi **2024-yil 5-aprel,119-son buyrug‘i 14**

“Yosh fermer” loyihasi faoliyatini 2024-yilda yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida”gi **2024-yil 5-aprel,120-son buyrug‘i 22**

“Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlari attestatsiyasi natijalaridan norozi bo‘lgan pedagog kadrlar murojaatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha apellyatsiya komissiyasi tarkibini tasdiqlash haqida”gi **2024-yil-17-aprel,123-son buyrug‘i 27**

“Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga tezkor javob berish, ular bilan samarali muloqot o‘rnatish, pedagoglarning huquqlarini himoya qilish samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi **2024-yil 18-aprel,124-son buyrug‘i 37**

“PISA 2025 tadqiqotining tajriba-sinov jarayonlarini o‘tkazish to‘g‘risida”gi **2024-yil 22-apreldagi, 128-son buyrug‘i 41**

“Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagoglarining malaka va ko‘nikmalarini baholashga yo‘naltirilgan xalqaro TEFL, TESOL va TESL sertifikatlarini qonunchilik talablariga mos-ligini ko‘rib chiqish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar haqida”gi **2024-yil 25-aprel,131-son buyrug‘i 66**

“Umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining namunaviy Ustavini tasdiqlash to‘g‘risida”gi **2024-yil 25-aprel, 132-son buyrug‘i 70**

“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining 2024-yil 16-apreldagi 69-son bayoni ijrosi haqida”gi **2024-yil 25-aprel 133-son buyrug‘i 87**

“Umumiy o‘rta ta’lim maktablari fransuz tili fani o‘qituvchilarining salohiyatini oshirishga yo‘naltirilgan malaka oshirish kurslarini tashkil etish to‘g‘risida”gi **2024-yil 2-may, 139-son buyrug‘i .. 91**

“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘quvchilarini pedagog kasbiga maqsadli tayyorlash va bitiruvchilarning bandligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 2024-yil 29-apreldagi 242-son qarori ijrosi haqida”gi **2024-yil 3-may,140-son buyrug‘i 93**

“Eshitishni xohlayman!” loyihasini amalga oshirish to‘g‘risida”gi **2024-yil 3-may, 142-son buyrug‘i 96**

“Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida yuritiladigan o‘quv-pedagogik hujjatlarni maqbullashtirish to‘g‘risida”gi **2024-yil 17-may, 163-son buyrug‘i..... 105**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 1-apreldagi PF-55-son Farmoni ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 1-apreldagi PF-55-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-apreldagi PF-55-son Farmoni (keyingi o‘rinlarda - Farmon) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Farmon bilan:

a) 2024-2025-o‘quv yilidan boshlab Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi (keyingi o‘rinlarda - Agentlik) tizimidagi maktablarda Fanlar akademiyasi akademiklari ishtirokida dars o‘tish amaliyoti yo‘lga qo‘yilishi;

Agentlik huzurida jamoatchilik asosida Agentlik tizimidagi maktablarning o‘qituvchilaridan iborat bo‘lgan STEM fanlari bo‘yicha fan kengashlarini hamda bitiruvchilaridan iborat bo‘lgan Bitiruvchilar kengashi tashkil etilishi belgilanganligi;

b) Fan kengashlari va Bitiruvchilar kengashining asosiy faoliyat yo‘nalishlari tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 1-apreldagi PF-55-son Farmoni ijrosini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi (X.Xusanov), Agentlik (A.Ubbiyev) 2024-2025-o‘quv yilidan boshlab:

a) Fanlar akademiyasi akademiklari tomonidan Agentlik tizimidagi maktablarda o‘quvchilarning yaratuvchanlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan darslar tashkil etish hamda o‘quvchilarning innovatsion g‘oyalari va ishlanmalarini rivojlantirish maqsadida “Yosh akademiklar” klublarini tashkil etish choralarini ko‘rsin.

Bunda, Fanlar akademiyasi akademiklarining dars mashg‘ulotlarini o‘tkazish bilan bog’liq xarajatlari shartnoma asosida - Agentlik huzuridagi Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan, xizmat safarini tashkil etish xarajatlari esa - ularning asosiy ish joyidan qoplanishi inobatga olinsin;

b) STEM fanlari bo‘yicha yangi ta’lim dasturlarini amaliyotga joriy qilish ishlarini fan kengashlari bilan kelishgan holda amalga oshirsin;

d) Agentlik tizimidagi maktablar bitiruvchilari bilan doimiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning takliflari asosida ta’lim jarayonini takomillashtirish, maktab ta’limidan keyin egallangan kasbiy tajribalarini o‘quvchilarga yetkazish maqsadida har yili bir marta Bitiruvchilar qurultoyi o‘tkazilishini ta’minlasin;

e) 2025-2026-o‘quv yilidan boshlab Mirzo Ulug‘bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabda tajriba-sinov tariqasida “Yangi O‘zbekiston” universiteti bilan o‘quvchilarni muhandislik asoslariga o‘rgatish bo‘yicha o‘zaro integratsiyalashgan ta’lim dasturlarini (keyingi o‘rinlarda - muhandislik dasturlari) joriy qilsin.

Bunda, muhandislik ta’lim dasturlarini lozim darajada o‘zlashtirgan bitiruvchilarga o‘z o‘qishini “Yangi O‘zbekiston” universiteti tegishli bakalavriat ta’lim yo‘nalishining 2-bosqichidan davom ettirish huquqi beriladi.

f) 2024-2025-o‘quv yilidan boshlab Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi Agentlik tizimida faoliyat yuritayotgan maktablarni ixtisoslik fanlaridan qoraqalpoq tilidagi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar bilan ta’minlash choralarini ko‘rsin;

g) “Yangi O‘zbekiston” universiteti (B.Yuldashev) bilan birgalikda bir oy muddatda “Yangi O‘zbekiston” universitetida oliy ta’limdan keyingi ta’lim instituti hamda yangi ta’lim yo‘nalishlarini ochsin.

5. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi (X.Xusanov), Agentlik (A. Ubbiyev), Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi (A.Kamalov), Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish bo‘limi (I. Xoldorova) har yili umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida ta’lim, axborot texnologiyalari, yashil energiya, ekologiya, iqlim o‘zgarishi va qishloq xo‘jaligi kabi yo‘nalishlarda yangi mahsulot yoki xizmat turini yaratishni nazarda tutuvchi “Ixtirochilikka qadam” loyihalar tanlovini o‘tkazsin.

Bunda, “Ixtirochilikka qadam” loyihalar tanlovi g‘oliblarining loyihalarini amaliyotga tatbiq etish Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi (X.Xusanov), Agentlik (A. Ubbiyev) 2024-2025-o‘quv yilidan boshlab Agentlik tizimidagi ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda:

chet tilini bilish bo‘yicha kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo‘lgan o‘qituvchilar tomonidan fanlarni chet tilida o‘qitish amaliyotini joriy etsin;

matematika, fizika, kimyo, biologiya, tabiiy fanlar (science), informatika va axborot texnologiyalari fanlaridan darslarni chet tilida olib borgan o‘qituvchilarga ular faoliyat yuritayotgan maktablarning xarajatlar smetasida xodimlarni rag‘batlantirish jamg‘armasiga ajratilgan mablag‘lar doi-

rasida tarif stavkasiga nisbatan 100 foiz miqdorida har oylik qo‘shimcha ustama to‘lab berilishini ta’minlasin.

7. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi (X.Xusanov), Agentlik (A.Ubbiyev) 2024-2025-o‘quv yilidan boshlab Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan Prezident maktablarining mahalliy o‘qituvchilariga ularning tarif stavkasiga nisbatan 350 foiz miqdorida har oylik qo‘shimcha ustamalarni belgilangan tartibda to‘lab berilishini ta’minlasin.

8. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi (X.Xusanov), Agentlik (A.Ubbiyev) Mudofaa vazirligi, Madaniyat vazirligi hamda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi bilan birgalikda 2024-2025-o‘quv yilidan boshlab Agentlik tizimidagi maktablarda o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yangi tizimini joriy qilish maqsadida darsdan tashqari mashg‘ulotlar sifatida:

9. - 8-sinflarda Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk sarkardalarimizning ibratli hayotini bugungi harbiylarimiz jasorati bilan bog‘lab, Vatan himoyachisi ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarni;

10. - 11-sinflarda harbiy o‘yinlar va sport musobaqalarini o‘tkazish, o‘quvchilarning harbiylar bilan bevosita uchrashuvlarini tashkil etish orqali harbiy- vatanparvarlik tuyg‘ularini oshirish va harbiy xizmatga tayyorgarlik bosqichini o‘tashga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarni tashkil etsin;

11. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi (X.Xusanov), Agentlik (A.Ubbiyev), Yuridik boshqarma manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

12. Axborot xizmati (D.Sobirova) amalga oshirilgan ishlarni ommaviy axborot vositalari hamda vazirlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalarida keng yoritsin.

13. Devonxona (H.Raximbayeva) bir kun muddatda ushbu buyruqni tegishli tarkibiy bo‘linmalar hamda Agentlikka yetkazsin.

14. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 5-aprel,
118-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2024-yil 5-apreldagi
118-son buyrug‘iga
ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 1-apreldagi PF-55-son Farmoni ijrosini ta’minlash bo‘yicha
CHORA-TADBIRLAR REJASI

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Moliyalashtirish manbai	Ijro uchun mas’ullar
1.	Ixtisoslashtirilgan maktablarning amaldagi o‘quv rejasida nazarda tutilgan fakultativ soatlar hisobidan shaxmat mashg‘ulotlarini tashkil qilish.	1. Shaxmat mashg‘ulotlarining dasturlarini ishlab chiqish. 2. Maktablarni shaxmat mashg‘ulotlari uchun zarur jihozlar va qo‘llanmalar bilan ta’minlash. 3. Malakali mutaxassislarni jalb qilish.	2024-yil avgust 2024-yil avgust 2024-yil sentabr	Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari	Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi (X.Xusanov), Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi *(A. Ubbiyev)*

2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimida faoliyat yuritayotgan maktablarni ixtisoslik fanlaridan qoraqalpoq tilidagi darsliklar va o'quv qo'llanmalar bilan ta'minlash.	1. Qoraqalpoq tilidagi yangi avlod darsliklari va o'quv qo'llanmalarini yaratish maqsadida mualliflar guruhlarini shakllantirish. 2. Xorijiy tajribani o'rgangan holda yangi avlod darsliklari va o'quv qo'llanmalarini bosqichma-bosqich ishlab chiqish, ularni muntazam ravishda takomillashtirib borish. 3. Ixtisoslashtirilgan maktablarni xalqaro talablar asosida tayyorlangan qoraqalpoq tilidagi darsliklar bilan bosqichma-bosqich ta'minlash.	2024-yil may 2024-2025 o'quv yilidan boshlab	Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi (X.Xusanov), Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi *(A. Ubbiyev)*
3.	Ixtisoslashtirilgan maktablarni xalqaro ta'lim tashkilotlari talablariga muvofiqlashtirish.	1. Nufuzli xalqaro ta'lim tashkilotlari ta'lim tajribasini o'rganish yuzasidan ishchi guruh tuzish. 2. O'rganish natijalariga muvofiq ixtisoslashtirilgan maktablarga xalqaro ta'lim tashkilotlari talablarini joriy etish yuzasidan muzokaralar olib borish. 3. Muhammad al-Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktablarni xalqaro ta'lim tashkilotlari talablariga muvofiqlashtirish. 4. Ixtisoslashtirilgan maktablarni bosqichma-bosqich xalqaro talablarga muvofiqlashtirish.	2024-yil may 2024-yil iyun 2024–2026 yillar 2026–2028 yillar	Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi (X.Xusanov), Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi *(A. Ubbiyev)*

4.	Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabda tajriba-sinov tariqasida "Yangi O'zbekiston" universiteti bilan o'quvchilarni muhandislik asoslariga o'rgatish bo'yicha o'zaro integratsiyalashgan ta'lim dasturlarini joriy qilish.	1. Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning o'quv jarayoni 5 yillik dasturlar asosida STEM modeli bo'yicha tashkil etish. Bunda, dastlabki 3 yilda ustuvorlik o'quvchilarda fizika, matematika, informatika va ingliz tili bo'yicha o'quvchilarning fundamental bilimlarni shakllantirishga, keyingi 2 yilda esa – muhandislikka boshlang'ich tayyorgarlikni ta'minlashga qaratiladi; 2. Muhandislik ta'lim dasturlari "Yangi O'zbekiston" universiteti bakalavriat ta'lim dasturlari bilan o'zaro integratsiya qilish; 3. Muhandislik dasturlariga tanlovni umumiy o'rta ta'lim muassasalarining matematika, mantiqiy fikrlash, informatika va muhandislik yo'nalishlari bo'yicha qobiliyati bor 6-sinf bitiruvchilari orasidan amalga oshirish;	2025–2026 o'quv yili 2025-yil mart 2025-yil iyun-avgust	-	Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi (X.Xusanov), Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi *(A. Ubbiyev)*
5.	Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni yanada kuchaytirish chora-larini ko'rish.	1. Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarga harbiy qismlarni biriktirish. 2. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik xonalarini jihozlash talablarini takomillashtirish. 3. Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik xonalarini yangi talablar asosida jihozlash. 4. O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha direktor o'rinbosari — harbiy chaqiriqqacha tayyorgarlik rahbari uchun yagona forma namunasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish. 5. O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha direktor o'rinbosarlari — harbiy chaqiriqqacha tayyorgarlik rahbarlari uchun mahorat darslari o'tkazish.	2024-yil avgust 2024-yil avgust 2024-yil sentabr 2024/2025 o'quv yilidan Reja asosida	Ijrochilar mablag'lari	Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi (X.Xusanov), Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi *(A. Ubbiyev)* Mudofaa vazirligi Milliy Gvardiya *bilan hamkorlikda*

6.	Ixtisoslashtirilgan maktablarda “Yosh akademiklar” klublarini tashkil etish.	1. “Yosh akademiklar” klublarining faoliyat ko‘rsatish tartibini ishlab chiqish. 2. “Yosh akademiklar” klublari faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ularga yaratuvchanlik, innovatsion g‘oyalar va ishlanmalarni yaratish (ishlab chiqish)ga moyilligi bo‘lgan iqtidorli o‘quvchilarni jalb etish.	2024-yil sentabr 2024-yil oktabr	-	Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi (X.Xusanov), Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi *(A. Ubbiyev)*
7.	Ixtisoslashtirilgan maktablarda Fanlar akademiyasi akademiklari ishtirokida dars o‘tish amaliyotini yo‘lga qo‘yish.	1. Fanlar akademiyasi akademiklarini soha va yo‘nalishlari, manzilidan kelib chiqib hududlardagi ixtisoslashtirilgan maktablarga biriktirish. 2. Akademiklar ishtirokida “Yosh akademiklar” klublari a’zolarining yaratuvchanlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan darslar tashkil etish. 3. Akademiklarni jalb etgan holda STEM fanlari o‘qituvchilari uchun mahorat darslarini o‘tkazish.	2024-yil sentabr 2024-2025 o‘quv yilidan boshlab Har chorakda bir marta	Ijrochilar mablag‘lari	Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi (X.Xusanov), Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi *(A.Ubbiyev)*
8.	Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzurida fan kengashlarini tashkil etish.	1. Agentlik huzurida STEM (matematika, informatika, fizika, kimyo va biologiya) fanlaridan fan kengashlarini tashkil etish. 2. Fan kengashlari tarkibini Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning STEM fanlari o‘qituvchilari o‘rtasida o‘tkaziladigan olimpiadalarda yuqori natija ko‘rsatgan pedagoglardan shakllantirish. 3. Fan kengashlari tarkibini har yili yuqori salohiyatli pedagoglar bilan yangilab va to‘ldirib borish.	2024-yil may 2024-yil may Har yili yanvar	-	Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi (X.Xusanov), Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi *(A. Ubbiyev)*

9.	Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda Bitiruvchilar kengashi faoliyatini yo'lga qo'yish.	1. Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda bitiruvchilardan iborat Bitiruvchilar kengashini tashkil etish. 2. Bitiruvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ular bilan doimiy hamkorlikni yo'lga qo'yish, bitiruvchilarning takliflari asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish, maktab ta'limidan keyingi faoliyatidagi tajribalarini o'quvchilarga yetkazish maqsadida har yili bir marta Bitiruvchilar qurultoyini o'tkazish.	2024-yil sentabr 2025-yildan boshlab har yili iyun	-	Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi (X.Xusanov), Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi *(A. Ubbiyev)*
10.	O'quvchilarning sun'iy intellekt va robototexnika yo'nalishiga qiziqishlarini yanada qo'llab-quvvatlash.	Ixtisoslashtirilgan maktablarning amaldagi tayanch o'quv rejasi doirasida o'quvchilarning sun'iy intellekt va robototexnika yo'nalishiga qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash hamda ularda yaratuvchanlik ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida 7 — 9-sinflarning texnologiya fani dasturlarini takomillashtirish, robototexnika asoslarini o'rgatishga yo'naltirish. Bunda, informatika va axborot texnologiyalari fanidan dars beradigan pedagog kadrlarning malaka toifalari texnologiya faniga ham tatbiq etiladi.	2024-yil sentabrdan boshlab	-	Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi (X.Xusanov), Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi *(A. Ubbiyev)*
11.	O'quvchilar o'rtasida yangi mahsulot yoki xizmat turini yaratishni nazarda tutuvchi "Ixtirochilikka qadam" tanlovini tashkil etish.	1. O'quvchilar o'rtasida ta'lim, axborot texnologiyalari, yashil energiya, ekologiya, iqlim o'zgarishi va qishloq xo'jaligi kabi yo'nalishlarda yangi mahsulot yoki xizmat turini yaratishni nazarda tutuvchi "Ixtirochilikka qadam" tanlovini o'tkazish tartibini ishlab chiqish. 2. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida "Ixtirochilikka qadam" loyihalar tanlovini o'tkazish. 3. "Ixtirochilikka qadam" tanlovi g'oliblarining loyihalarini amaliyotga tatbiq etish choralarini ko'rish.	2024-yil sentabr Har yili reja asosida	Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi (X.Xusanov), Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi *(A. Ubbiyev)*

12.	"Yangi O'zbekiston" universitetida oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutini ochish.	1. "Yangi O'zbekiston" universiteti bakalavr ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari xususiyatidan kelib chiqib tayanch doktorantura hamda doktorantura ixtisosliklari ro'yxatini shakllantirish. 2. "Yangi O'zbekiston" universitetida tayanch doktorantura va doktorantura ixtisosliklarini ochish. 3. "Yangi O'zbekiston" universitetining tayanch doktorantura va doktoranturasiga O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan o'qitish uchun 20 ta qabul kvotasini ajratish	2024-yil may 2024-yil iyun 2024-yil iyul-avgust	-	Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi (X.Xusanov), Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi(A. Ubbiyev), "Yangi O'zbekiston" universiteti (B.Yuldashev)
13.	"Yangi O'zbekiston" universitetida yangi ta'lim yo'nalishlarini ochish.	1. Gen muhandisligi, atrof-muhit muhandisligi, biotizimlar muhandisligi va agroiqtisodiyot sohalari bo'yicha fan dasturlarini ishlab chiqish. 2. Gen muhandisligi, atrof-muhit muhandisligi, biotizimlar muhandisligi va agroiqtisodiyot sohalari bo'yicha professor-o'qituvchilar jamoasini shakllantirish. 3. 2026/2027 o'quv yilidan boshlab universitetning Agrotexnologiyalar fakultetiga talabalarni qabul qilish.	2025-yil aprel 2026-yil may 2026-yil sentabr	"Yangi O'zbekiston" universiteti mablag'lari	Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi (X.Xusanov), Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi *(A.Ubbiyev)*, "Yangi O'zbekiston" universiteti

14.	Agentlik tizimidagi maktablarda o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yangi tizimini joriy qilish	1. O'quvchilar o'rtasida "Turon yo'lbarslari" harbiy sport ("Temur tuzuklari" bilimdoni, kamondan o'q otish, qurolni to'liq bo'lmagan qismlarga ajratish va yig'ish, sport qurolidan o'q otish, birinchi tibbiy yordamni ko'rsatish) musobaqalarini o'tkazish; 2. Milliy an'ana va qadriyatlarni aks ettiradigan namunaviy maktab burchaklarini tashkil etish; 3. O'quvchilarda axloqiy, ijtimoiy-hissiy va estetik didni rivojlantirish, tarixiy siymolar hayotini badiiy talqinda aks ettirish, milliy qadriyatlarni ulug'lashga yo'naltirilgan "Turon" teatr studiyasi faoliyatini tajriba-sinov tariqasida yo'lga qo'yish.	2024-2025 o'quv yilidan boshlab har yili 2024-2025 o'quv yilidan boshlab		Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi (X.Xusanov), Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi *(A.Ubbiyev)*, Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi (A.Kamalov), Maktabdan tashqari ta'limni tashkil etish bo'limi (I. Xoldorova)
15.	2025-2026-yillarda Agentlik tizimida yangi ixtisoslashtirilgan maktablarni qurish.	1. Agentlik tizimida 8 ta yangi ixtisoslashtirilgan maktablarni qurish; 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi PF-106-son Farmonining 4- va 7-ilovalariga muvofiq qurilishi nazarda tutilgan 13 ta ixtisoslashtirilgan maktab-internat negizida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning filiallarini tashkil etish; 3. Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda Farmonning 6-bandida nazarda tutilgan maktab va filiallarning 2025 – 2027-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritilishini ta'minlash; 4. Maktab va filiallarni belgilangan muddatlarda qurish-ta'mirlash, zamonaviy o'quv qurollari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mebel va o'quv laboratoriyalari bilan jihozlash ishlarini amalga oshirishda hamkorlik qilish.	2025-2026-yillar	Davlat dasturlari mablag'lari	Soha infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi (Q.Oqilov), Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi (X.Xusanov), Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi (A.Ubbiyev)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijod maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 1-apreldagi PQ-147-son qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijod maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 1-apreldagi PQ-147-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-apreldagi PQ-147-son qarori (keyingi o‘rinlarda - Qaror) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qaror bilan Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ijod maktablari (keyingi o‘rinlarda - ijod maktablari)ga biriktirilgan oliy ta’lim muassasalari va O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi elchixonalari ro‘yxati, ijod maktablarini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-apreldagi “Ijod maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-147-son qarori ijrosini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi (X.Xusanov), Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi (A.Ubbiyev)ga 2024-2025-o‘quv yilidan boshlab ijod maktablarida:

har chorakda ijtimoiy va ijodiy faol, keng jamoatchilik o‘rtasida obro‘-e’tibor qozongan adiblar va jamoat arboblari ishtirokida O‘zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda mahorat darslarini o‘tkazish;

mahorat darslari uchun to‘lanadigan bir martalik to‘lov Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan amalga oshirish choralarini ko‘rish;

jahon adabiyotining durdona asarlarini o‘zbek tiliga badiiy tarjima qilish maqsadida “Yosh tarjimonlar” klublari faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

mumtoz adabiyotimiz, jumladan, jadid ma’rifatparvarlarining Vatanimiz tarixida chuqur iz qoldirgan boy ilmiy merosini o‘rganish maqsadida amaldagi tayanch o‘quv rejasi doirasida “Matnshunoslik” darslarini tashkil etish;

har yili ikki marotaba o‘quvchilarning “Ijod bog‘idan guldasta” nomli to‘plamlarini nashr etish amaliyotini yo‘lga qo‘yish;

o‘quvchilarda axloqiy, ijtimoiy-emotsional va estetik didni rivojlantirish maqsadida “Tasviriy san’at va chizmachilik” fani negizida “San’at” (ART) fanini kiritish;

o‘quvchilarning sun’iy intellekt va robototexnika yo‘nalishiga qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash hamda ularning yaratuvchanlik ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida 7 - 9-sinflarning “Texnologiya” fani doirasida robototexnika asoslarini o‘rgatish;

“Tasviriy san’at va chizmachilik” hamda “Musiqa” fanlaridan dars beradigan pedagog kadrlarning malaka toifalari “San’at” (ART) faniga, “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan dars beradigan pedagog kadrlarning malaka toifalarini esa - “Texnologiya” faniga ham tatbiq etish;

ijod maktablari o‘quvchilarini o‘z ijodiy faoliyat natijalarini, jumladan ijtimoiy tarmoqlarda va onlayn platformalarda tijoratlashtirishga o‘rgatish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish choralarini ko‘rish vazifalari yuklatilsin.

5. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi (X.Xusanov), Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi (A.Ubbiyev):

a) ijod maktablarida ishlovchi xodimlar mehnatini qo‘shimcha rag‘batlantirish tizimini takomillashtirsin.

Bunda:

2024-yil may oyida ijod maktablari xodimlarini rag‘batlantirish jamg‘armasiga ajratilgan mablag‘lardan foydalanish tartibini ishlab chiqish;

2024-yil sentabr oyidan boshlab ijod maktablarining ma’muriy-boshqaruv, pedagogik, o‘quv-yordamchi, texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning mehnatiga haq to‘lashning takomillashtirilgan tizimini amaliyotga joriy etish choralarini ko‘rsin;

b) Ibroyim Yusupov nomidagi ijod maktabini ixtisoslik fanlaridan qoraqalpoq tilidagi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari bilan ta’minlash bo‘yicha amaliy ishlarni amalga oshirsin.

Bunda:

2024-yil may oyida Qoraqalpoq tilidagi yangi avlod darsliklari va o‘quv qo‘llanmalarini yaratish maqsadida mualliflar guruhlarini shakllantirish;

2025-yildan boshlab xorijiy tajribani o‘rgangan holda yangi avlod darsliklari va o‘quv qo‘llanmalarini bosqichma-bosqich ishlab chiqish, ularni muntazam ravishda takomillashtirib borish;

2025-2026-o‘quv yilidan boshlab ijod maktabini xalqaro talablar aso-

sida tayyorlangan qoraqalpoq tilidagi darsliklar bilan bosqichma-bosqich ta’minlash choralari ko‘rilsin.

6. Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish bo‘limi (I.Xoldarova) O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda 2024-yil 1-sentabrga qadar 2024-2025-o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida badiiy adabiyot va san’at sohasida iqtidorli yoshlarni saralashga qaratilgan ko‘rik-tanlov o‘tkazish to‘g‘risida tartib ishlab chiqsin.

Bunda, tanlovni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan amalga oshirilishi nazarda tutilsin.

7. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi (X.Xusanov), Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi (A.Ubbiyev):

a) O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish hamda bandligini ta’minlash maqsadida ijod maktablarining ijodiy tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘ysin;

b) 2024-yil 1-sentabrdan boshlab ijod maktablarining 10- va 11-sinf o’quvchilarini:

Madaniy meros agentligi bilan hamkorlikda gid, tahrirchi va restavrator yordamchisi kasblariga;

O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bilan hamkorlikda tele- va radiokanallarda rejissyor yordamchisi, ovoz yozish rejissyori assistenti, muharrir yordamchisi hamda reportyor kasblariga;

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi bilan hamkorlikda bosma nashriyotlarda muharrir va dizayner kasblariga;

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi va uning hududlardagi filiallari bilan hamkorlikda skanerlash va raqamlashtirish hamda raqamlashtirilgan resurslarni qayta ishlashga oid kasblarga;

Madaniyat vazirligi bilan birgalikda teatrlarda san’atshunoslik, aktyorlik san’ati, rejissyorlik, xalq ijodiyoti sohalaridagi kasblarga o‘rgatish bo‘yicha amaliy darslarni joriy qilsin;

d) ijod maktablariga biriktirilgan oliy ta’lim muassasalari hamda elchixonalar bilan qarorda belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida amalga oshirish choralarini ko‘rsin.

8. Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish boshqarmasi (Sh.Temirova) Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi taqsimoti asosida 2024-yil 1-sentabrga qadar ijod maktablariga biriktirilgan elchixonalar bilan har bir ijod maktabiga xorijiy til bo‘yicha kamida ikkitadan mutaxassislarni jalb qilishda hamkorlikni yo‘lga qo‘ysin.

Bunda, xorijiy til bo‘yicha kamida ikkitadan mutaxassislarni jalb qilish

xarajatlari Tashqi ishlar vazirligining O‘zbekiston Respublikasining diplomatik xizmat organlarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi inobatga olinsin.

9. Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (N.Kuchkarova), Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimini muvofiqlashtirish bo‘limi (X.Xusanov), Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi (A.Ubbiyev) xorijiy davlatlardagi elchixonalar bilan birgalikda ikki oy muddatda 2024-2025-yillar davomida ijod maktablarining kamida 50 nafar o‘qituvchilarining xorijiy ilg‘or ta’lim muassasalarida malaka oshirish reja-grafigini ishlab chiqsin.

10. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi (X.Xusanov), Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi (A.Ubbiyev)ga Qaror bilan tasdiqlangan ijod maktablarini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlariga erishilishi yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklatilsin.

11. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi (X.Xusanov), Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi (A.Ubbiyev):

ikki oy muddatda Yuridik boshqarma bilan birgalikda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishgan holda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga tegishli takliflar kiritsin;

har oy yakuni bo’yicha buyruq ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida ma’lumot taqdim etib borsin.

12. Axborot xizmati (D.Sobirova) amalga oshirilgan ishlarni ommaviy axborot vositalari hamda vazirlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida keng yoritib borsin.

13. Devonxona (H.Raximbayeva) bir kun muddatda ushbu buyruqni tegishli tarkibiy bo‘linmalar hamda Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligiga yetkazsin.

14. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 5-aprel,
119-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2024-yil 5-apreldagi
119-son buyrug‘iga ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-apreldagi “Ijod maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-147-son qarori ijrosini ta’minlash bo‘yicha CHORA-TADBIRLAR REJASI

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Moliyalashtirish manbai	Ijro uchun mas’ullar
1.	Ijod maktablari to‘g‘risidagi nizomni takomillashtirish.	Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ijod maktablari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlashni nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini ishlab chiqish. Bunda: ijod maktablari to‘g‘risida nizom loyihasini; ijod maktablari faoliyatini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi loyihasini tasdiqlashni nazarda tutish.	2024-yil iyul	-	Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi *(X.Xusanov)*, Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi *(A.Ubbiyev)*
2.	Ijod maktablarida ishlovchi xodimlar mehnatini qo‘shimcha rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish.	1. Ijod maktablari xodimlarini rag‘batlantirish jamg‘armasiga ajratilgan mablag‘lardan foydalanish tartibini ishlab chiqish. 2. Ijod maktablarining ma’muriy-boshqaruv, pedagogik, o‘quv-yordamchi, texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning mehnatiga haq to‘lashning takomillashtirilgan tizimini amaliyotga joriy etish.	2024-yil may 2024-yil avgust	-	Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi *(X.Xusanov)*, Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi *(A.Ubbiyev)*

3.	Ijod maktablarining namunaviy shtatlar jadvalini tasdiqlash.	1. Ijod maktablarining amaldagi shtatlar jadvalini tahlil qilish hamda yangi tahrirdagi namunaviy shtatlar jadvalini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Ijod maktablari namunaviy shtatlar jadvalini amaliyotga joriy etish.	2024-yil noyabr 2024-yil dekabr	-	Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi *(X.Xusanov)*, Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi *(A.Ubbiyev)*
4.	Ibroyim Yusupov nomidagi ijod maktabini ixtisoslik fanlaridan qoraqalpoq tilidagi darsliklar va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash.	1. Qoraqalpoq tilidagi yangi avlod darsliklari va o'quv qo'llanmalarini yaratish maqsadida mualliflar guruhlarini shakllantirish. 2. Xorijiy tajribani o'rgangan holda yangi avlod darsliklari va o'quv qo'llanmalarini bosqichma-bosqich ishlab chiqish, ularni muntazam ravishda takomillashtirib borish. 3. Ijod maktabini xalqaro talablar asosida tayyorlangan qoraqalpoq tilidagi darsliklar bilan bosqichma-bosqich ta'minlash.	2024-yil may 2025-yildan boshlab 2025-2026 o'quv yilidan boshlab	Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi *(X.Xusanov)*, Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi *(A.Ubbiyev)*
5.	Umumiy o'rta ta'lim muassasalari 6-sinf o'quvchilari o'rtasida badiiy adabiyot va san'at sohasida iqtidorlilarini aniqlashga qaratilgan ko'rik-tanlovlar o'tkazish.	1. Adabiyot va san'at sohasida iqtidorli o'quvchilarni aniqlashga qaratilgan ko'rik-tanlovlar o'tkazish tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash. Bunda: har yili tuman (shahar) va viloyat bosqichlarini o'tkazish-ni; tanlovning viloyat bosqichida sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan o'quvchilarning (1-,2-,3-o'rin) ijod maktablariga umumiy qabul parametrlari doirasida kirish imtihonisiz o'qishga qabul qilinishini nazarda tutish. 2. Ko'rik-tanlovlarni yuqori saviyada tashkil etish, g'oliblarini munosib taqdirlash. 3. Tanlov natijalaridan kelib chiqib, adabiyot va san'at sohasida kichik yoshdagi iqtidorli o'quvchilar bazasini yaratish.	2024-yil sentabr 2025-yildan boshlab	Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	Maktabdan tashqari ta'limni tashkil etish bo'limi *(I.Xoldarova)*, Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi *(X.Xusanov)*, Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi *(A.Ubbiev)*

6.	Ijod maktablarida ijtimoiy va ijodiy faol, keng jamoatchilik o'rtasida obro'-e'tibor qozongan adiblar va jamoat arboblari ishtirokida mahorat darslari o'tkazishni tizimli tashkil etish.	1. Mahorat darslarini o'tkazish tartibini ishlab chiqish. 2. Mahorat darslarini olib boruvchi shaxslarga qo'yiladigan talablarni belgilash. 3. Mahorat darslarini olib boruvchi shaxslarni tanlash. 4. Mahorat darslarini tizimli ravishda o'tkazish.	2024-yil iyul 2024-yil avgust	O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi *(X.Xusanov)*, Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi *(A.Ubbiev)*
7.	Ijod maktablari o'quvchilarining ijodiy ishlarini doimiy chop etish tizimini yo'lga qo'yish.	1. O'quvchilarning ijodiy ishlarini nashr etish tartibini belgilash. 2. O'quvchilarning ijodiy ishlarini to'plash va tahrir qilish bo'yicha ishchi guruhni shakllantirish. 3. O'quvchilarning ijodiy ishlari to'plamini nashr etish.	2024-yil may 2024-yil oktabr har yili	O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi *(X.Xusanov)*, Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi *(A.Ubbiev)*
8.	Ijod maktablari o'rtasida sog'lom raqobatni shakllantirish.	1. Ijod maktablari faoliyati natijadorligini baholash mezonlari va tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Ijod maktablari faoliyati natijadorligidan kelib chiqib, ularning reytingini aniqlash. 3. Reyting bo'yicha eng yaxshi natija ko'rsatgan ijod maktablari rahbarlarini rag'batlantirish tizimini joriy etish.	2024-yil may har yili iyul 2024-2025 o'quv yilidan boshlab	Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi *(X.Xusanov)*, Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi *(A.Ubbiev)*

9.	Ijod maktablarining ta'lim jarayonlarini xalqaro ta'lim tashkilotlari talablariga muvofiqlashtirish.	1. Ishchi guruh tuzgan holda xalqaro ta'lim tashkilotlari talablarini o'rganish. 2. O'rganish yakunlaridan kelib chiqib, ta'lim jarayonlari xalqaro ta'lim tashkilotlari talablariga muvofiqlashtiriladigan ijod maktablarini belgilash hamda tegishli xalqaro ta'lim tashkilotlari bilan muzokaralar olib borish. 3. Ijod maktablarining ta'lim jarayonlarini bosqichma-bosqich xalqaro talablarga muvofiqlashtirish.	2024-yil may 2024-yil iyul 2024 -2030 yillar	Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi *(X.Xusanov)*, Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi *(A.Ubbiev)*
10.	Ijod maktablari o'quvchilarining o'z ijodiy faoliyatini tijoratlashtirishga o'rgatish.	1. Ijod maktablari o'quvchilarining o'z ijodiy faoliyatini tijoratlashtirishga o'rgatish rejasini ishlab chiqish va mas'ullarni belgilash. 2. Reja asosida o'quvchilar uchun amaliy mashg'ulotlar tashkil etish. Bunda, o'quvchilarning ijodiy faoliyatini ijtimoiy tarmoqlarda va onlayn video platformalarda tijoratlashtirishni nazarda tutish.	2024-yil may 2024-yil maydan boshlab	-	Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi *(X.Xusanov)*, Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi *(A.Ubbiev)*

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

“Yosh fermer” loyihasi faoliyatini 2024-yilda yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida

Ta’lim muassasalarida tashkil etilgan issiqxonalar faoliyatini rivojlantirish, ushbu yo‘nalishda kadrlar salohiyatini muntazam oshirib borish, maktablarda issiqxona faoliyatini yo‘lga qo‘yishda pedagog va o‘quvchilar uchun treninglar tashkil etish hamda “Yosh fermer” loyihasini amaliyotga to‘liq joriy etish maqsadida **buyuraman:**

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkilotining O‘zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi 2024-yil 9-aprel sanasidagi 221.24-son xatiga muvofiq “Yosh fermer” loyihasiga (keyingi o‘rinlarda - Loyiha) 2023-yilda jalb etilgan 18 ta ta’lim muassasalarining pedagog va o‘quvchilari uchun Farg‘ona shahar “Asia Fergana” mehmonxonasida seminar-trening (keyingi o‘rinlarda - seminar-trening) tashkil etilishi;

seminar-treningda ishtirok etadigan pedagog va o‘quvchilarning transport va yashash xarajatlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkilotining O‘zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi tomonidan qoplanishi inobatga olinsin.

2. Quyidagilar:

“Yosh fermer” loyihasiga 2023-yilda jalb etilgan 18 ta ta’lim muassasalari pedagog va o‘quvchilarining seminar-treningda ishtiroki jadvali 1-ilovaga muvofiq;

“Yosh fermer” loyihasiga 2023-yilda jalb etilgan 18 ta ta’lim muassasalaridan seminar-treningda ishtirok etuvchi pedagog va o‘quvchilar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

20. DMTTda o‘quv yili har yili joriy yilning 2-sentabr kunidan kelgusi yilning 31-may kuniga qadar bo‘lgan davrni, yozgi sog‘lomlashtirish davri yilning 1-iyun kunidan 31-avgust kuniga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.
21. DMTTda bolalar uchun ta’lim-tarbiya jarayoni O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuniga muvofiq davlat tili va boshqa tillarda tashkil etiladi.

5-bob. DMTTga bolalarni qabul qilish va undan chiqarish

22. DMTTga 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar qabul qilinadi.
Joriy o‘quv yili davomida 7 yoshga to‘lgan tarbiyalanuvchilar keyingi o‘quv yilining boshlanishiga qadar tashkilotda qoladi.
DMTTda bo‘sh guruh xonalari mavjud bo‘lgan hollarda belgilangan tartibda 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar pullik ta’lim-tarbiya xizmati asosida qabul qilinishi mumkin.
23. Bolani DMTTga doimiy yoki vaqtincha qatnashga qabul qilish ushbu DMTTda bo‘sh joylar bo‘lsa, kalendar yil davomida qonun hujjatlarida belgilangan vakolatli davlat organlari tomonidan berilgan yo‘llanma asosida amalga oshiriladi.
Mobil guruhlar hamda 6 yoshli bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy bepul tayyorlov guruhlariga qabul qilish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.
24. DMTTga bolani qabul qilish, uni guruhdan guruhga o‘tkazish bilan bog‘liq masalalar imtihon va test sinovlarisiz amalga oshiriladi.
25. Bolani DMTTga qabul qilish hududiy davlat xizmatlari markazi tomonidan shakllantirilgan yo‘llanma asosida mazkur tashkilot direktori-

ning buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.

26. Tarbiyalanuvchilarni DMTT ro‘yxatidan chiqarish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

bolaning qonuniy vakili tomonidan berilgan arizaga ko‘ra;

tegishli tibbiy xulosa asosida;

ota-ona (ota-ona o‘rnini bosuvchi qonuniy vakillar) tomonidan badal to‘lovlari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq o‘z vaqtida to‘lanmaganda;

tarbiyalanuvchining qonuniy vakillari va DMTT o‘rtasida tuzilgan shartnoma shartlari bajarilmaganda.

6-bob. DMTT guruhlari to‘ldirilishi

27. Guruhlar DMTTning tarkibiy birligi hisoblanadi.

28. DMTTdagi guruhlar bir xil yoshdagi hamda turli yoshdagi bolalar bilan to‘ldirilishi mumkin.

29. DMTT tarbiyalanuvchilarini guruhlarda yoshiga muvofiq to‘ldirish bir guruhdan boshqasiga o‘tkazish yo‘li bilan har yili o‘quv yili boshlanishidan oldin amalga oshiriladi.

30. DMTTda guruhlar quyidagi miqdorda to‘ldiriladi:

3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan to‘liq kunlik guruhlarda — ko‘pi bilan 30 nafar bola;

qisqa vaqt bo‘ladigan guruhlarda –ko‘pi bilan 30 nafar bola;

turli yoshdagi guruhlarda — ko‘pi bilan 25 nafar bola;

bolalar kecha-yu kunduz bo‘ladigan guruhlarda – ko‘pi bilan 10 nafar bola.

31. DMTT joylashgan joyda DMTTga borishni xohlovchi maktabgacha yoshdagi bolalar soni 20 nafar boladan kam bo‘lsa va bu joyda boshqa DMTT bo‘lmasa, Agentlik bilan kelishgan holda kam sonli bolalardan iborat guruhlarni tashkil etishga yo‘l qo‘yiladi.

32. DMTTning tegishli yoshdagi guruhini to‘ldirish uchun tarbiyalanuvchilarni boshqa yoshdagi guruhdan qabul qilish orqali har yili joriy o‘quv yili tugaganidan so‘ng amalga oshiriladi.

33. **Yangi tarbiyalanuvchilarni ushbu guruhlarga qabul qilish** DMTTdagi bo‘sh joylar ochilishiga qarab belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

7-bob. DMTTda ta’lim-tarbiya jarayoni va metodik ishlarini tashkil etish

33. DMTTdagi ta’lim-tarbiya jarayoni Agentlik tomonidan tasdiqlangan davlat o‘quv dasturlari hamda shu asosida ishlab chiqilgan o‘z dasturlari (variativ, moslashtirilgan, porsial) ta’lim dasturi bilan belgilanadi.

34. Tarbiyalanuvchilar, ularning qonuniy vakillari, DMTTning pedagog xodimlari ta’lim-tarbiya jarayonining ishtirokchilari hisoblanadi.

35. DMTTdagi ta’lim-tarbiya jarayoni yillik, kalendar-mavzuli rejalar va faoliyatlar jadvali bilan tartibga solinadi.

36. DMTTda ta’lim va tarbiyaning shakli, vositalari va metodikalari

O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

37. DMTTda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy shakli o‘yin hisoblanadi.

38. Har bir yosh guruhlaridagi ta’lim-tarbiya jarayoni va faoliyat turlarining miqdori, davomiyligi va izchilligi DMTTdagi tegishli pedagog xodimning o‘quv rejasi bilan belgilanadi.

39. DMTTda qo‘shimcha pullik ta’lim-tarbiya xizmatlari O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirining 2018-yil 13-dekabrdagi “Davlat maktabgacha ta’lim muassasalarida qo‘shimcha pullik ta’lim-tarbiya xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 3-mh-son buyrug‘iga muvofiq amalga oshiriladi (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 18-yanvarda 3123-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan).

8-bob. DMTTda tarbiyalanuvchilar sog‘lig‘ini asrash

40. DMTTda tarbiyalanuvchilarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan kelishilgan holda Maktabgacha ta’lim agentligi tomonidan belgilanadi.

41. DMTT tarbiyalanuvchilariga dastlabki tibbiy yordam DMTT shtatiga kiradigan tibbiyot xodimi tomonidan ta’minlanadi, shuningdek, tibbiyot xodimi DMTTning rahbari va boshqa xodimlari bilan birgalikda bolalarning hayoti, sog‘lig‘i va jismoniy kamoloti, davolash-profilaktika tadbirlari o‘tkazilishi, sanitariya-gigiyena me’yorlariga, ovqatlanish rejimi va sifatiga rioya etilishi uchun javobgardir.

42. DMTT tibbiyot xodimining faoliyatini nazorat qilish tuman (shahar) tibbiyot birlashmasi tomonidan amalga oshiriladi.

43. DMTT shtatidagi xodimlar sog‘liqni saqlash muassasalarida belgilangan tartibda bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tadi.

44. DMTT tibbiyot xodimining malakasini oshirish bepul asosda sog‘liqni saqlash tizimining malaka oshirish muassasalarida 3-yilda kamida bir marta o‘tkaziladi.

45. DMTTda tibbiyot xodimi uchun alohida xona ajratilib, faoliyati uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar yaratiladi.

46. Tarbiyalanuvchilarning davriy tibbiy ko‘rigi tuman (shahar) tibbiyot birlashmasi bilan kelishilgan holda o‘tkaziladi.

9-bob. DMTTda sog‘lom ovqatlanishni tashkil etish

47. DMTTda bolalarni ovqatlantirish ishlari an’anaviy va autsorsing usulida tashkil etiladi.

48. DMTTda sog‘lom ovqatlantirish tartibi qonun hujjatlari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari va unda belgilangan oziq-ovqat mahsulotlari asosida tuzilgan “yagona mavsumiy ” taomnoma asosida amalga oshiriladi.

49. DMTTda bolalarni sog‘lom ovqatlanishini tashkil etish uchun ja-

vobgarlik tashkilot rahbari zimmasiga yuklatiladi.

50. DMTTda bolalarni sog‘lom ovqatlanish tartibi amaldagi SanPIN me’yorlari asosida belgilanadi.

51. DMTTda ovqatlantirish autsorsing usulida tashkil etilganda autsorsing korxonasi rahbari tomonidan tasdiqlangan “yagona mavsumiy” taomnoma asosida tashkil etiladi.

Autsorser tomonidan tayyorlab berilayotgan taomlar sifati, vazni, tarkibining taomnomaga muvofiqligi tashkilot direktori, hamshira, ota-onalar vakillaridan iborat Brakeraj komissiyasi tomonidan nazorat qilinadi.

52. DMTTda ovqatlantirish an’anaviy tarzda olib borilganda bolalarni ovqatlantirishni tashkil etish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkilot direktori tomonidan tasdiqlangan “yagona mavsumiy” taomnoma asosida amalga oshiriladi.

53. DMTT direktori, tibbiyot xodimi va xo‘jalik ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari taomnomaga muvofiq mahsulotlar to‘liq yetkazilishi va sarflanishini ta’minlash, taom tayyorlash, oziq-ovqat mahsulotlarini sifatli qabul qilish, saqlash uchun zarur sharoitlar yaratish hamda oshpazlar tomonidan taom tayyorlash jarayonida texnologiya va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilinishi hamda oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash ombori va oshxonaning sanitariya talablariga rioya etilishi uchun javobgar hisoblanadi.

10-bob. DMTT faoliyatini moliyalashtirish

54. DMTT faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari, bolalarni DMTTda bo‘lgan davri uchun olinadigan ota-onalar to‘lovi, jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya ehsonlari hamda qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga moliyalashtiriladi.

55. DMTTga qo‘shimcha budjet mablag‘larini jalb qilish byudjetdan moliyalashtirishni kamaytirishga olib kelmaydi.

11-bob. Bolalarni DMTTda bo‘lishlari uchun ota-onalar to‘lovi

56. Tarbiyalanuvchilarni DMTTda bo‘lishi deganda tarbiyalanuvchilarga ta’lim-tarbiya berish, ularni parvarishlash, ovqatlantirish, qarab turish tushuniladi.

57. Bolalarni DMTTda bo‘lishlari uchun ota-onalar to‘lovi qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda amalga oshiriladi.

58. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga muhtoj oilalar farzandlari uchun ota-onalar to‘lovi imtiyozli shartlarda, qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda amalga oshiriladi.

12-bob. DMTTni boshqarish

59. DMTTni boshqarish qonun hujjatlarida va mazkur Ustavda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

60. DMTTga vazirlikning hududiy bo‘linmalari tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar orasidan maktabgacha ta’lim tashkiloti Kuzatuv kengashi tomonidan tanlanadigan direktor rahbarlik qiladi.

61. DMTT faoliyatiga direktor joriy rahbarlik qiladi hamda tashkilotning Kuzatuv kengashi va muassisi oldida hisob beradi.

62. DMTT direktori o‘ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarga muvofiq quyidagilarni amalga oshiradi:

mazkur ustav asosida unga berilgan vakolatlar doirasida faoliyat yuritadi;

DMTT faoliyatiga rahbarlik qiladi va ishni samarali tashkil etadi;

vazirlikning tegishli hududiy bo‘linmasi bilan kelishgan holda DMTT shtatlarini tasdiqlaydi va belgilangan tartibda vakolatli organlardan ro‘yxatdan o‘tkazadi;

DMTT nomidan ishonchnomasiz harakat qiladi, joylardagi hokimiyat va davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar bilan bo‘lgan munosabatlarda DMTT manfaatlarini ifoda etadi;

belgilangan tartibda DMTTning mol-mulki va vositalaridan foydalanadi, o‘z vakolati doirasida vazirlik va uning hududiy bo‘linmalari bilan kelishgan holda bitimlar tuzadi;

o‘z vakolati doirasida buyruqlar chiqaradi, ko‘rsatma va ishonchnomalar beradi;

DMTT faoliyatini takomillashtirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va xodimlarning ijtimoiy himoyasini ta’minlash yuzasidan tegishli tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga takliflar kiritadi;

tarbiyalanuvchilarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish, shuningdek ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni ta’minlaydi;

Maktabgacha ta’lim tashkiloti, xodim va tarbiyalanuvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni agentlikning axborot tizimlariga o‘z vaqtida va sifatli kiritib boradi;

DMTT direktori axborot tizimlariga kiritiladigan ma’lumotlarning ishonchliligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi;

DMTTning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy talablarga javob beradigan jihozlar, o‘quv-metodik qo‘llanmalar va multimedia vositalari bilan ta’minlash bo‘yicha ishlarni tashkil etadi;

DMTTning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati uchun javob beradi;

budjetdan tashqari qo‘shimcha moliyalashtirish manbalari va moddiy resurslarni, xomiylar mablag‘larini, shu jumladan qonunda ta’qiqlanmagan boshqa mablag‘larini jalb qiladi;

amaldagi qonunchilikka muvofiq DMTT xodimlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi;

vazirlikning hududiy bo‘limlari bilan kelishgan xolda DMTTning ichki mehnat tartib qoidalarini, shuningdek qonunchilikka muvofiq boshqa qoidalarni tasdiqlaydi;

qonun hujjatlari talablari va me’yorlariga muvofiq, shuningdek byudjetdan tashqari mablag‘larni jalb qilish hisobiga DMTTning moddiy-texnik jihatdan ta’minlanishini va xonalarning jihozlanishini amalga oshiradi;

DMTTning moliyaviy mablag‘laridan maqsadli va oqilona foydalanilishini ta’minlaydi;

DMTT xodimlari o‘rtasida xizmat vazifalarini taqsimlash hamda zarur hollarda qonunchilik bilan ta’qiqlanmagan va tashkilotni rivojlantirishga qaratilgan yangi vazifalarni bajarishni yuklashi mumkin;

DMTTda mehnat qonunchiligiga rioya qilinishini ta’minlaydi hamda xodimlar o‘rtasidagi manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish va shaffof tanlov orqali xodimlarni mehnat shartnomasi asosida ishga qabul qilishni, malakasi oshirilishini va lavozimidan ozod etilishini amalga oshiradi;

DMTTning faoliyati bo‘yicha hisobotlarni va boshqa zarur ma’lumotlarni belgilangan tartibda vazirlikning hududiy bo‘linmalariga taqdim etilishini ta’minlaydi;

DMTTning xo‘jalik-moliyaviy faoliyatiga rahbarlik qiladi, amaldagi qonun hujjatlari va mazkur Ustavda vazirlik va uning hududiy bo‘limlari vakolatiga kiradigan masalalar bundan mustasno;

vazirlik va Maktabgacha ta’lim agentligining buyruqlari va boshqa me’yoriy hujjatlarini so‘zsiz ijro etilishini ta’minlaydi;

vazirlikning me’yoriy hujjatlariga muvofiq holda tayyorlangan DMTTning me’yoriy hujjatlarini tasdiqlaydi va joriy etilishini ta’minlaydi;

DMTT faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvlarini hal qilish, shuningdek DMTT va o‘zining faoliyatida huquqbuzarlik va korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘ymaslikni qat’iy choralarini ko‘radi, bu kabi holatlarga yo‘l qo‘yilib, ichki mehnat qoidalariga rioya qilinmagan holatlar aniqlanganda vazirlikning hududiy bo‘linmalariga xabar qiladi;

DMTT hududida inson hayoti va sog‘lig‘iga xavf soluvchi holatlar, favqulodda vaziyatlar, huquqbuzarliklar, jinoyatlar kabi noxush holatlar yuzaga kelgan taqdirda vazirlikning hududiy bo‘linmalariga darhol xabar qiladi;

DMTT va xodimlarining faoliyatini qonun hujjatlari, vazirlikning buyruqlari va boshqa me’yoriy hujjatlarga muvofiq tashkil qiladi va ta’minlaydi;

DMTTning rivojlantirilishiga qaratilgan qonun bilan ta’qiqlanmagan boshqa vazifalarni ham bajaradi.

63. DMTT direktori lavozimiga qo‘yiladigan malaka talablari Maktabgacha ta’lim agentligi tomonidan belgilanadi.

64. DMTTning direktori lavozimida faoliyat olib borishga qonun hujjatlarida cheklovlar belgilanishi mumkin.

13-bob. DMTT boshqarish organlari

65. Quyidagilar DMTTning boshqarishni amalga oshiradi:

Pedagogik kengash;

Kuzatuv kengashi;

Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori.

66. DMTTning Pedagogik kengash faoliyati jamoatchilik asosida tashkil qilinadi. Pedagogik kengash DMTT ta’lim-tarbiya jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan barcha asosiy va tashkiliy masalalarni muvofiqlashtirish bo‘yicha kollegial organ hisoblanadi.

67. DMTTning Pedagogik kengashi quyidagilarni amalga oshiradi:

DMTTda ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish masalalarini ko‘rib chiqadi;

DMTTning yillik ish rejasini va pedagog xodimlarining pedagogik yuklamasini belgilaydi;

DMTTning ta’lim dasturini amalga oshirish natijalarini baholaydi;

DMTT va bolaning qonuniy vakillari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik tartibini belgilaydi;

DMTTning pedagog xodimlari malakasini oshirish, ularning ijodiy tashabbuskorligini rivojlantirish, ta’lim jarayoniga ilm-fan yutuqlarini va ilg‘or pedagogik tajribani joriy etish masalalarini muhokama etadi;

DMTT xodimlarini ma’naviy va moddiy rag‘batlantirish masalalarini ko‘rib chiqadi;

DMTT rahbari va pedagog xodimlar hisobotlarini eshitadi;

DMTTning Pedagogik kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham bajarishi mumkin.

DMTT Pedagogik kengashi faoliyatini tashkil etish tartibi Maktabgacha ta’lim agentligi tomonidan belgilanadi.

68. DMTTda bolaga ta’lim-tarbiya berish va uni har tomonlama rivojlantirish, DMTTni rivojlantirish va faoliyatini takomillashtirish borasida ko‘maklashish maqsadida Kuzatuv kengashi tashkil etiladi. Kuzatuv kengashining tarkibi ushbu DMTTga qatnaydigan bolalarning qonuniy vakillari, uning xodimlari, shuningdek, nodavlat notijorat DMTTlar vakillari orasidan tuziladi.

69. DMTTning Kuzatuv kengashi 11 kishidan kam bo‘lmagan tarkibda tuziladi. Uning tarkibiga:

har bir guruhdan tarbiyalanuvchilarning qonuniy vakillari orasidan 3 nafar,

DMTTning pedagoglari va tarbiyachilarning yordamchilari orasidan 2 nafar,

DMTT ma’muriyatidan 1 nafar,

tegishli hududiy maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limidan 1 nafar,

jamoat DMTTlari va homiylar orasidan 2 nafar a’zolar kiritiladi.

70. DMTTning Kuzatuv kengashi quyidagilarni amalga oshiradi:

DMTTni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi;

DMTTga vazirlikning hududiy bo‘linmalari tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar orasidan DMTT direktorini saylaydi, shuningdek, uni egallab turgan lavozimidan ozod qilish bo‘yicha takliflarni belgilangan tartibda kiritadi;

DMTT rahbarining uning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar, moliya-xo‘jalik holati, daromadlar va xarajatlar, byudjet, byudjetdan tashqari, homiylik va boshqa mablag‘lardan foydalanish to‘g‘risidagi hisobotlarini vaqti-vaqti bilan eshitadi;

DMTTda sog‘lom ovqatlanishni tashkil qilinishi sifatini aniqlash maqsadida ovqatlantirish ishlari yuzasidan monitoring o‘tkazadi, bu borada tashkilot direktoriga takliflar kiritadi;

DMTTning yillik moliyaviy rejalari, ko‘rsatilayotgan pullik xizmatlar

narxining miqdorlari va DMTT mulkidan foydalanganlik uchun ijara haqi miqdori, shu jumladan auksiondagi boshlang‘ich narxlar bilan DMTT rahbarining ishtirokida tanishib chiqadi va takliflar beradi;

DMTT direktori, pedagog va boshqa xodimlarining faoliyati bo‘yicha ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazadi;

DMTTda tarbiyalanuvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda ularni yaxshilash bo‘yicha ota-onalar va jamoatchilik tashkilotlari va homiylar bilan hamkorlik qilishda amaliy yordam ko‘rsatadi;

tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limlariga DMTT xodimlarini rag‘batlantirish to‘g‘risida takliflar kiritadi.

DMTTning Kuzatuv kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni amalga oshirishi mumkin.

DMTTning Kuzatuv kengashi faoliyatini tashkil etish tartibi Maktabgacha ta’lim agentligi tomonidan tashkil etiladi.

14-bob. Bolaning qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlari

70. Bolaning qonuniy vakillari quyidagi huquqlarga ega:

bolaning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish;

DMTTda farzandi uchun ta’lim berish shakli va tilini tanlash;

DMTTda bolaga sifatli ta’lim-tarbiya berish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda bolaning shaxsiga nisbatan hurmat bilan munosabatda **bo‘lishni talab qilish;**

DMTTda bolalar ta’lim olishi va tarbiyalanishini tashkil etishda faol ishtirok etish;

DMTTning **o‘quv rejalari va dasturlari bilan tanishish;**

DMTT Kuzatuv kengashi tarkibini saylash va unga saylanish.

bolaning qonuniy vakillari qonun hujjatlariga va DMTT bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo‘lishi ham mumkin.

71. **Bolaning qonuniy vakillarining majburiyatlari:**

bolaning jismoniy salomatligi, ruhiy holati bo‘yicha g‘amxo‘rlik qilish, uning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan qobiliyatlari, iste’dodlarini rivojlantirish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish;

DMTTdagi pedagog, xodim, ota-onalar va boshqa tarbiyalanuvchilarni hurmat qilish;

bolani Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, mehnatga, xalqning milliy, tarixiy, madaniy, umuminsoniy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish va atrof-muhitni asrashga o‘rgatish;

oilada bolaning har tomonlama rivojlanishi, tarbiya va ta’lim olishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

bolaning maktabgacha ta’lim tashkilotiga qatnagan davri uchun belgilangan tartibda badal to‘lovlarini o‘z vaqtida to‘lash.

Bolaning qonuniy vakillari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ega bo‘lishi mumkin.

15-bob. DMTT pedagog va boshqa xodimlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi

72. DMTT xodimlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi O‘zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi, mazkur Ustav, jamoa shartnomasi, ichki mehnat tartibi qoidalari va mehnat shartnomasi bilan belgilanadi.

73. DMTT pedagog va boshqa xodimlari bilan mehnat shartnomasini tuzish va bekor qilish O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, “Ichki mehnat tartibi qoidalari”ga va mehnat shartnomasiga muvofiq amalga oshiriladi.

74. DMTTda maxsus pedagogik ma’lumotga, maktabgacha ta’lim sohasida kasbiy tayyorgarlikka va yuksak ma’naviy, axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga egadirlar.

75. **Sud hukmi yoki tibbiy xulosaga asosan pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishi ta’qiqlangan shaxslarga** DMTTda pedagogik faoliyat olib borishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

76. DMTT pedagog va boshqa xodimlari lavozimlarida mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun qonunchilikda boshqa cheklovlar ham belgilanishi mumkin.

77. DMTT pedagog xodimlari quyidagi huquqlarga ega:

qonuniy huquq va manfaatlarini, qadr-qimmati va qiziqishlarini himoya qilish;

ijodiy tashabbus ko‘rsatish, ta’lim berish va tarbiyalash metodlarini, o‘quv qo‘llanmalari hamda ta’lim berish vositalarini erkin tanlash;

DMTTni boshqarishda mazkur Ustavda belgilangan tartibda ishtirok etish;

maktabgacha ta’limning o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

faoliyat davomida ma’naviy va moddiy rag‘batlantirilish;

maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berish va tarbiyalash sohasidagi ilmiy, innovatsion, xalqaro tadbirlarda ishtirok etish;

DMTTning xodimlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin;

78. DMTTning pedagog xodimlarini o‘z kasbiy majburiyatlarini bajarishi bilan bog‘liq bo‘lmagan ish turlariga jalb qilishga yo‘l qo‘yilmaydi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

79. DMTT pedagog xodimlarining majburiyatlari:

DMTTda bolalarga yuksak kasbiy darajada ta’lim va tarbiya berish;

pedagogik odob-axloq qoidalariga rioya qilish, bolalarning or-nomusi va qadr-qimmatini hurmat qilish, bolalarga tazyiq o‘tkazilishidan himoya qilish, ularni vatanparvarlik, mehnatga, atrof-muhitga va ota-onaga hurmat ruhida tarbiyalash;

o‘z vaqtida va belgilangan tartibda kasbiy mahorat va malakalarini oshirish;

o‘z kasbiy ko‘nikmalari va pedagogik mahoratini doimiy takomillashtirib borish;

ta’lim-tarbiya sifatini yanada yaxshilash, zamonaviy axborot-kommu-

nikatsion texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha pedagogik izlanishlarni va ijodiy tashabbuskorliklarni muntazam amalga oshirib borish;

DMTT pedagog xodimlarini attestatsiyaga jalb etish va attestatsiyadan o‘tkazish tegishli qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

DMTT pedagog xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazish natijalariga ko‘ra pedagog xodimning egallab turgan lavozimiga muvofiqligi aniqlanadi va uning malaka toifasi belgilanadi.

DMTTning pedagog xodimlari zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

80. DMTTda ta’lim-tarbiya jarayonidan siyosiy maqsadlarda foydalanish yoki bolalarni qonun hujjatlariga zid harakatlarni sodir etishga undash ta’qiqlanadi.

81. DMTT pedagog xodimlari quyidagilar uchun javobgar hisoblanadi:

DMTTdagi faoliyatida xizmat vazifalarining ijrosini ta’minlash, mazkur Ustavga muvofiq berilgan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish;

faoliyatdagi huquqbuzarlik va mansabga sovuqqonligi yuzasidan harakat yoki harakatsizlik oqibatida kelib chiqqan jiddiy ziyon va zarar;

malaka talablari va lavozim yo‘riqnomasiga muvofiq topshiriqlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish.

DMTT pedagog xodimlariga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa javobgarlik ham belgilanishi mumkin.

16-bob. DMTTning mol-mulki va mablag‘lari

82. Ta’sischi, vazirlik yoki u vakolat bergan organ qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mol-mulkni DMTTga o‘tkazadilar.

DMTTga o‘tkazilgan mol-mulk uning tezkor boshqaruvida bo‘ladi.

DMTT o‘ziga tegishli va xarajatlar smetasi bo‘yicha o‘ziga ajratilgan mablag‘lar hisobiga xarid qilingan mol-mulkni qonun hujjatlari va vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan me’yoriy hujjatlarga muvofiq tasarruf etadi.

83. DMTTning faoliyati qonun hujjatlariga muvofiq moliyalashtiriladi.

84. DMTT mol-mulki va pul mablag‘lari manbalari shakllantirilishi quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari;

Tarbiyalanuvchilarni tashkilotga qatnagan davri uchun ota-onalar to‘lovi;

DMTTda qo‘shimcha pullik ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishdan olingan daromadlar;

jismoniy va yuridik (shu jumladan xorijiy) shaxslarning qonun bilan ta’qiqlanmagan homiylik xayriyalari.

mahalliy hamda xalqaro tashkilotlarning grantlari;

qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan boshqa manbalar.

85. DMTTni moliyalashtirish belgilangan tartibda tasdiqlangan va ro‘yxatdan o‘tkazilgan xarajatlar smetasiga muvofiq amalga oshiriladi.

86. Bolalarning DMTTda qatnaganligi uchun to‘lov naqd pul, plastik

karta, elektron to‘lov yoki tijorat banklari orqali pul o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Ushbu holatda to‘lovni tasdiqlovchi hujjat nusxasi DMTTga taqdim etiladi (elektron to‘lovdan tashqari).

Bolalarni DMTTga qatnaganligi uchun to‘lov belgilangan tartibda foydalanish uchun DMTTning ota-onalar to‘lovi bo‘yicha g‘aznachilik hisob raqamiga tushadi.

87. Qonun hujjatlariga muvofiq to‘lovning boshqa qoidalari ham belgilanishi mumkin.

88. DMTTning moliya-xo‘jalik faoliyati tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi markazlashgan moliya-buxgalteriya xizmatlari orqali budjet mablag‘lari va byudjetdan tashqari mablag‘lar doirasida amalga oshiriladi.

89. DMTTni budjetdan tashqari rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari faqatgina DMTT rahbarining asoslantirilgan talabnomasiga ko‘ra tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari markazlashgan moliya-buxgalteriya xizmatlari orqali sarflanadi.

17-bob. DMTTni qayta tashkil etish va tugatish

90. DMTTni qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vazirlik hamda Maktabgacha ta’lim agentligi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

18-bob. Yakuniy qoidalar

91. DMTTda siyosiy partiyalar va diniy muassasalarning tashkiliy tuzilmalari tashkil etilishiga va faoliyat olib borishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

92. Xalqaro hamkorlik, pedagogik axborot va tajriba almashish, pedagog xodimlar amaliyotini o‘tkazish va malakasini oshirish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining 2024-yil 16-apreldagi 69-son bayoni ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining 2024-yil 16-apreldagi 69-son bayonida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, 2024-2025-o‘quv yili uchun Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar, maktab-internatlar va ijod maktablariga o‘quvchilar hujjatlarini qabul qilish hamda kirish imtihonlarini tashkil etish maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining 2024-yil 16-apreldagi 69-son bayonida belgilangan vazifalar (keyingi o‘rinlarda - bayon) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Bayon bilan:

a) Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi (keyingi o‘rinlarda - Agentlik) tizimidagi Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarga (keyingi o‘rinlarda - Agentlik tizimidagi maktablar) 2024-2025-o‘quv yili uchun hujjat topshirish istagida bo‘lgan o‘quvchilarning arizalarini onlayn shaklda qabul qilish 2024-yilning iyun oyida, kirish imtihonlarini 2024-yilning iyul-avgust oylarida o‘tkazilishi;

b) hujjat topshirish jarayonida o‘quvchilarning ota-onasi (yoki ularning qonuniy vakili) tomonidan tasdiqlanadigan kirish imtihonlari shartlari va talablari haqidagi onlayn ofertaga bir nechta maktablarga qabul qilingan o‘quvchilar Prezident maktablarining ikkinchi bosqich imtihon natijalari e’lon qilinganidan keyin uch kun muddatda qaysi maktabda o‘qishni tanlaganligi to‘g‘risida Agentlikka ma’lum qilishi haqida talab kiritilishi;

d) Prezident maktablariga kirish imtihonlarining birinchi bosqichini “Cambridge University Press & Assessment” tashkiloti (Buyuk Britaniya) (keyingi o‘rinlarda - Cambridge xalqaro tashkiloti) tomonidan tuzilgan nazorat materiallari asosida Bilim va malakalarni baholash agentligi hamda Agentlik huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (keyingi o‘rinlarda - Markaz) tomonidan Cambridge xalqaro tashkiloti bilan hamkorlikda o‘tkazilishi;

e) 2024-2025-o‘quv yili uchun Agentlik tizimidagi maktablarga kirish imtihonlari mazkur bayonning ilovasiga muvofiq katta sig‘imli binolarda o‘tkazilishi;

f) ijodiy imtihonlarni tashkil etish va o‘tkazish uchun jalb etilgan ijod maktablari xodimlariga ijod maktablarining 2024-yil uchun tasdiqlangan xarajatlar smetasi doirasida Rag‘batlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan imtihon o‘tkazishning har bir kuniga bazaviy hisoblash miqdorining 1,5 barobari miqdorida ish haqi to‘lanishi ma’lumot uchun qabul

qilinsin.

3. Agentlik (A.Ubbiyev):

a) 2024-yil 15-mayga qadar:

qabul jarayoni monitoringini yuritish hamda muvofiqlashtirish uchun malakali mutaxassislardan iborat shtab (keyingi o'rinlarda - shtab) a'zolari ro'yxatini shakllantirib, tasdiqlasin hamda faoliyatini tashkil etsin;

o'quvchilarning hujjatlarini onlayn shaklda qabul qilish grafigini tasdiqlasin hamda o'quvchilar va ularning ota-onalariga ommaviy axborot vositalari orqali yetkazilishini ta'minlasin;

o'quvchilarning hujjatlarini onlayn shaklda qabul qilish, shuningdek, o'quvchilar va ularning ota-onalarini qiziqtirgan savollarga javob berish uchun Agentlikda hamda tizimdagi maktablarda har kuni soat 9:00 dan 19:00 gacha (10-maydan 1-oktabrgacha bo'lgan muddatga) ishlaydigan Murojaatlar markazi (koll-markaz) faoliyatini yo'lga qo'ysin;

b) 2024-yil 10-iyunga qadar:

kirish imtihonlari o'tkaziladigan joylarning tayyorgarlik holatini o'rgansin;

hujjat topshirish jarayonida o'quvchilarning ota-onasi (yoki ularning qonuniy vakili) tomonidan tasdiqlanadigan kirish imtihonlari shartlari va talablari haqidagi onlayn ofertaga bir nechta maktablarga qabul qilingan o'quvchilar Prezident maktablarining ikkinchi bosqich imtihon natijalari e'lon qilinganidan keyin uch kun muddatda qaysi maktabda o'qishni tanlaganligi to'g'risida Agentlikka ma'lum qilishi haqida talab kiritsin;

d) O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda:

2024-yil 14-iyunga qadar ijod maktablarining ijodiy (yozma va og'zaki) imtihon materiallarini va baholash mezonlarini ishlab chiqsin hamda belgilangan tartibda ekspertizadan o'tkazsin;

2024-yil 20-iyunga qadar O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining adiblari va jamoat arboblari ishtirokida ijodiy imtihonlarni o'tkazish uchun Hakamlar hay'ati tarkibini tasdiqlasin;

qabul komissiyalariga taqdim etilgan talabgorlarning ma'lumotlarini ko'rib chiqsin, zaruratga ko'ra, taqdim etilgan hujjatlar yuzasidan tegishli tashkilotlarga so'rov yuborib, ularga aniqlik kiritsin;

e) Bilim va malakalarni baholash agentligi bilan hamkorlikda:

imtihon o'tkazilishidan kamida bir hafta oldin kirish imtihonlarini o'tkazish grafigini tasdiqlasin;

kirish imtihonlarini tashkil etish hamda yakuni bo'yicha natijalarni rasmiy veb-saytda e'lon qilish choralarini ko'rsin;

Prezident maktablariga kirish imtihonlarining birinchi bosqichini o'tkazish uchun Cambridge xalqaro tashkiloti tomonidan tuzilgan nazorat materiallarini test sinov boshlanishidan o'n kun oldin Bilim va malakalarni baholash agentligiga taqdim etilishini ta'minlasin;

kirish imtihonlarini o'tkazish uchun Agentlik tizimidagi, shuningdek, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan rahbar va pedagog xodimlarni guruh nazoratchisi

sifatida jalb etsin.

4. Markaz (D.Davidova):

a) ijod, ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarning kirish imtihonlari uchun nazorat materiallarini tayyorlash (tuzish, tarjima, ekspertiza) va dasturga kiritish uchun kerakli mutaxassislarni jalb etsin;

b) "Uzbekistan airways" AJ, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ, Ichki ishlar vazirligi va boshqa vakolatli organlar bilan hamkorlikda kirish imtihonlari boshlanguniga qadar test materiallari, ularning maxfiyligi va daxlsizligini ta'minlagan holda joylarga o'z vaqtida yetkazilishini ta'minlasin;

d) ijod, ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarning kirish imtihonlarini yuqori saviyada o'tkazish uchun:

nazorat materiallarini hamda javoblar varaqlarini chop etish ishlarini (zaruratga ko'ra buyurtma berish orqali) tashkil etsin;

imtihon materiallarini tayyorlashda maxfiylikni ta'minlash (yopiq rejim tarzida ishni tashkil qilish) uchun ichki ishlar, milliy gvardiya xodimlarini hamda malakali mutaxassislarni shartnoma asosida jalb etsin, shuningdek, zaruratga ko'ra moddiy-texnika va boshqa vositalarni xarid qilsin;

nazorat materiallari va javob varaqalarni Davlat feldyegerlik xizmati orqali maxfiyligi va daxlsizligini ta'minlagan holda joylarga o'z vaqtida yetkazilishini ta'minlasin;

kirish imtihoni yakunlari bo'yicha javoblar varaqalarini qabul qilib olsin, tekshirsin hamda natijalarini Agentlikka taqdim qilsin;

e) Prezident maktablariga kirish imtihonlarining har ikki bosqichi hamda ijod, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarga kirish imtihonlarini o'tkazish bo'yicha barcha zaruriy choralar bilan bir qatorda har bir talabgorni ruchka (qalam), o'chirg'ich (rezinka), ichimlik suvi, guruh nazoratchilarini beyjik bilan ta'minlasin va joylarga o'z vaqtida yetkazish ishlarini muddatida sifatli bajarsin;

f) Prezident maktablariga kirish imtihonlarining ikkinchi bosqichida: talabgorlarni binolar, guruhlar, o'rinlarga ajratsin;

Cambridge xalqaro tashkiloti tomonidan taqdim etilgan savollar kitobi va javoblar varaqasini qabul qilish, hududlarga taqsimlash va ularni Davlat feldyegerlik xizmati orqali maxfiyligi va daxlsizligini ta'minlagan holda hududlardagi mas'ul ishchi guruhga yetkazsin;

hududlarga mas'ul xodimlarni ajratgan holda kirish imtihonlari jarayonlarini tashkil etsin;

kirish imtihonlari yakunlanganidan so'ng, javoblar varaqalari hamda savollar kitobini muhrlangan holatda qabul qilib olsin;

test sinovlari natijalarini elektron shaklda Cambridge xalqaro tashkilotiga yuborsin;

g) kirish imtihonlariga jalb qilingan guruh nazoratchilari va binoga mas'ul bo'lgan xodimlarga qisqa muddatli o'quv-seminarlar tashkil etsin;

h) ijod, ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarning kirish imtihonlari uchun nazorat materiallarini tayyorlash (tuzish, tarjima, ekspertiza) va dasturga kiritish uchun jalb etilgan mutaxassislar bilan fuqa-

roviy-huquqiy shartnoma rasmiylashtirilgan holda har bir tayyor savol uchun (tuzish, tarjima, ekspertiza, tahrir) umumiy 35 000,0 so‘m haq to‘lanishini ta’minlasin;

i) Prezident maktablariga o‘quvchilarni qabul qilish yuzasidan o‘tkaziladigan kirish imtihonlarining birinchi bosqichida har bir talabgor uchun bazaviy hisoblash miqdorining 5 (besh) foizi miqdorida Bilim va malakalarni baholash agentligiga haq to‘lash choralarini ko‘rsin.

5. Agentlik (A.Ubbiyev), Markaz (D.Davidova) kirish imtihonlarini tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq quyidagi xarajatlarni aniq hisob-kitoblar asosida Agentlik huzuridagi Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda - Jamg‘arma) hisobidan moliyalashtirsin:

Hakamlar hay’ati a’zolari bo’lgan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining adiblari va jamoat arboblariga imtihon o‘tkazishning har kuniga bazaviy hisoblash miqdorining 3 barobari miqdorida ish haqi to‘lash;

kirish imtihonlariga jalb etilgan guruh nazoratchilari va binoga mas’ul bo‘lgan xodimlarni har bir smena uchun bazaviy hisoblash miqdorining yarim barobari miqdorida rag‘batlantirish;

Malakali xorijiy mutaxassis va o‘qituvchilar bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni (ish haqi, aviachipta xarajatlarini qoplash, tibbiy sug‘urta va yashash joyi bilan ta’minlash), shuningdek, ularni rekruting qilish bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchi xorijiy (“Teachaway” (Kanada), “Seek Teachers” (Buyuk Britaniya), “ISS” (AQSH) tashkilotlari va ularning O‘zbekistondagi rasmiy vakillari) hamda mahalliy tashkilotlar xizmatiga haq to‘lash, Agentlik xodimlarini rag‘batlantirish;

Markaz tomonidan taqdim qilingan talabnomaga asosan kirish imtihonlarida har bir talabgor uchun bazaviy hisoblash miqdorining 10 (o‘n) foizi miqdorida Markazga haq to‘lash.

6. Agentlik (A.Ubbiyev) amalga oshirilgan ishlar yuzasidan haftalik ma’lumotlarni Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limiga kiritib borsin.

7. Devonxona (X.Raximbayeva) ushbu buyruqni barcha mas‘ul ijrochilarga yetkazilishini ta’minlasin.

8. Mazkur buyruq ijrosinining nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 25-aprel,
133-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari fransuz tili fani o‘qituvchilarining salohiyatini oshirishga yo‘naltirilgan malaka oshirish kurslarini tashkil etish to‘g‘risida

Umumta’lim maktablarida o‘qitishning zamonaviy usullarini joriy etish, pedagoglarning salohiyatini oshirish va ularning bilimlarini rivojlantirish maqsadida **buyuraman:**

1. Fransiyaning O‘zbekistondagi elchixonasining 2024-yil 24-apreldagi umumta’lim maktablari fransuz tili fani o‘qituvchilarining uzluksiz bilimlarini oshirish loyihasini amalga oshirish to‘g‘risidagi 0183121-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Fransiyaning O‘zbekistondagi elchixonasi tomonidan ikki yilga mo‘ljallangan umumta’lim maktablari fransuz tili fani o‘qituvchilarining uzluksiz bilimlarini oshirish dasturi loyihasini (keying o‘rinlarda - Loyiha) amalga oshirishga rozilik berilsin.

3. Fransuz tili fani o‘qituvchilari uchun loyiha doirasida malaka oshirish kurslarini tashkil etish sarf-xarajatlari Fransiyaning O‘zbekistondagi elchixonasi tomonidan qoplanishi inobatga olinsin.

4. Loyiha doirasida malaka oshirish kurslari Fransiyaning O‘zbekistondagi elchixonasi tomonidan quyidagi to‘rt bosqichda tashkil etiladi:

birinchi bosqichda mazkur loyihada ishtirok etmoqchi bo‘lgan nomzodlar “Ev@lang” platformasi orqali ilovada ko‘rsatilgan muddatlarda Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlarida test topshiradi va test natijalariga muvofiq barcha hududlardan jami 400 nafar o‘qituvchilar tanlab olinadi;

ikkinchi bosqichda tanlab olingan o‘qituvchilar Fransiyaning tajribali mutaxassislari tomonidan Toshkent va Samarqand fransuz alyanslari nodavlat taTim tashkilotlarida 30 soatlik oflayn shaklda hamda 15 soatlik onlayn shaklda malaka oshirish kurslarida o ‘qitiladi;

uchinchi bosqichda oflayn va onlayn malaka oshirish kurslarida qatnashgan o‘qituvchilar 60 soatlik malaka oshirish (stajirovka) kurslariga Fransiyaning nufuzli oliygohlariga yuboriladi;

to‘rtinchi bosqichda Toshkent va Samarqand fransuz alyanslari nodavlat taTim tashkilotlarida loyihada ishtirok etgan barcha fransuz tili fani o‘qituvchilari DELF/DALF xalqaro imtihonlarini topshiradi. Imtihon natijalariga muvofiq ularga DELF/DALF xalqaro diplomlari beriladi.

5. Pedagog kadrlarni salohiyatini oshirish ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (N.Kuchkarova):

Fransiyaning O’zbekistondagi elchixonasi bilan hamkorlikda umumta’lim maktablari fransuz tili fani o’qituvchilari uchun malaka oshirish kurslarini yuqori saviyada tashkil etish;

uch kun muddatda loyiha doirasida malaka oshirish kurslarini o'tkazish bosqichlari, saralash tanlovlari haqida zaruriy o'quvlarni o'tkazish;

loyihada ishtirok etmoqchi bo'lgan nomzodlar ro'yxatini shakllantirish choralarini ko'rsin.

6. Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari:

test o'tkazish jarayonlarini sifatli tashkil etish va o'tkazish uchun barcha zarur sharoitlar yaratish;

test o'tkazish uchun kompyuter xonalarini ajratish va zaruriy kompyuter texnika vositalari bilan ta'minlash;

kompyuter texnika vositalarini internet tarmog'iga ulash choralarini ko'rsin.

7. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lim vaziri va Toshkent shahar va viloyatlar Maktabgacha va maktab ta'lim boshqarmalari boshliqlariga:

loyihada ishtirok etmoqchi bo'lgan fransuz tili fani o'qituvchilari ro'yxatini shakllantirish;

ularning belgilangan muddatlarda tanlov jarayonlariga ishtirokini ta'minlash;

loyiha doirasida malaka oshirish kurslarini o'tkazish bosqichlari, saralash tanlovlari haqida o'qituvchilar uchun o'quvlar tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

8. Belgilansinki, loyiha jarayonlarida ishtirok etadigan o'qituvchilarning ish joyi va ish haqi saqlanadi.

9. Axborot xizmati (D.Sobirova) loyihani vazirlikning rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari va ommaviy axborot vositalarida yoritsin.

10. Devonxona (H.Raximbayeva) ushbu buyruqni vazirlikning tarkibiy bo'linmalari hamda hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yetkazilishini ta'minlasin.

11. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o'rinbosari S.Radjabov zimmasiga yuklansin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 2-may,
139-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘quvchilarini pedagog kasbiga maqsadli tayyorlash va bitiruvchilarning bandligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 29-apreldagi 242-son qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘quvchilarim pedagog kasbiga maqsadli tayyorlash va bitiruvchilarning bandligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 29-apreldagi 242-son qarori ijrosini ta’minlash hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘quvchilarini pedagog kasbiga maqsadli va uzluksiz tayyorlashning yangi tizimini yaratish orqali pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 29-apreldagi 242-son qarori (keyingi o’rinlarda — Qaror) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida pedagog sinflarni tashkil etish va uning o‘quv metodik jarayoni bilan bog‘liq masalalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 29-apreldagi 242-son qarori bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq amalga oshirilishi inobatga olinsin.

3. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik sinflar uchun kasbiy ta’lim fani (Pedagog kasbiga kirish kursining) tajriba-sinov o‘quv dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti uslubiy kengashining 2024-yil 31-yanvardagi 6-sonli yig‘ilishi bayoni bilan hamda O‘quvchilarni kasbiy layoqatini aniqlash va pedagogika kasbiga yo‘naltirish metodologiyasi O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi ilmiy-metodik kengashining 2024-yil 15-martdagi 1-sonli yig‘ilishi bayoni bilan tavsiya qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Quyidagilar:

2024-2025-o‘quv yilidan boshlab tajriba-sinov tariqasida pedagogik sinflar tashkil etiladigan maktablar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik sinflar uchun 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv reja 2-ilovaga muvofiq;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik sinflar uchun 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejaga tushuntirish xati 2a-ilovaga muvofiq;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik sinflar uchun kasbiy ta’lim fani o‘quv dasturi 3-ilovaga muvofiq;

O‘quvchilami kasbiy layoqatini aniqlash va pedagogika kasbiga

yo‘naltirish metodologiyasi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. O‘quvchilami kasbga yo‘naltirish bo‘limi (A.Mamadaliyev), Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (N.Kuchkarova), O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi (L.Gaynutdinova), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga:

pedagogik sinflarni tajriba-sinov tariqasida tashkil etish va ularning faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish jarayonlarini maktablarda tegishli hududdagi pedagogika oliy ta’lim muassasasi ishtirokida amalga oshirish;

pedagogik sinflarni tamomlagan bitiruvchilarga O‘zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasining 2-darajasidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktabgacha yordamchi tarbiyachisi kasbi bo‘yicha ishlash huquqini beruvchi davlat namunasidagi sertifikat berish;

joriy yilning 25-mayiga qadar Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda tajriba-sinov tariqasida pedagogik sinflar tashkil etiladigan maktablarga biriktirilgan pedagogika oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatini tasdiqlash;

2023-2024-o‘quv yili yakuniga qadar 9-sinflar o‘rtasida pedagogika sohasiga qiziqishi bor o‘quvchilarni aniqlash bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazish;

uch oy muddatda biriktirilgan maktablarning 9-sinf o‘quvchilari orasidan pedagog kasbiga layoqati va qiziqishi mavjud o‘quvchilarni pedagogik sinflarda o‘qishga tanlash ishlarini tashkil qilish;

tajriba-sinov tariqasida tashkil etilgan pedagogik sinflarda o‘quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish va natijadorligi bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar tayyorlash vazifalari yuklatilsin.

6. Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (N.Kuchkarova), Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti (A.Qirg‘izboyev):

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda pedagogik sinflarda dars beradigan pedagogika oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari tarkibini shakllantirsin va ularni xorijiy davlatlarda malakasini oshirish choralarini ko‘rsin;

2024-2025-o‘quv yiliga qadar xorijiy davlatlarning nufuzli ta’lim tashkilotlarida malakasini oshirgan professor-o‘qituvchilar ishtirokida mazkur buyruqning 3-ilovasi bilan tasdiqlangan pedagogik sinflar uchun o‘quv dasturi asosida o‘quv adabiyotlari va tarqatma materiallarni tayyorlasin,

bunda xarajatlar Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining Ta’lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilsin;

pedagogik sinflar tashkil etilgan maktablar va biriktirilgan pedagogika oliy ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirsin va ularga meto-

dik yordam ko‘rsatsin.

7. O‘quvchilami kasbga yo‘naltirish bo‘limi (A.Mamadaliyev), Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (N.Kuchkarova), Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti (A.Qirg‘izboyev):

2025-2026-o‘quv yili yakunida tajriba-sinov tariqasida maktablarda tashkil etilgan pedagogik sinflar faoliyati natijadorligi bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar asosida tayyorlangan takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritsin;

tajriba-sinov tariqasida tashkil etilgan pedagogik sinflarda o‘quv-tarbiya jarayonining tizimli nazoratini o‘rnatsin.

8. Belgilab qo‘yilsinki, kasbiy ta’lim fanlari joriy etiladigan sinflardan tashqari boshqa sinflarning o‘quv jarayonlari O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 26-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejani tasdiqlash to‘g‘risida”gi 94-sonli buyrug‘i asosida tashkil qilinadi.

9. Qarorga muvofiq maktablarda tajriba-sinov tariqasida tashkil etiladigan pedagogik sinflar faoliyati samarali tashkil etilishiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha

va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari hamda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori shaxsan mas’ul hisoblanadi.

10. Devonxona (H.Raximboyeva) ushbu buyruqni bir kun muddatda tegishli tarkibiy bo‘linmalar, hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari hamda vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar hamda muassasalarga yetkazilishini ta’minlasin.

11. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev va vazir o‘rinbosari S.Radjabovlar zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 3-may,
140-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

“Eshitishni xohlayman!” loyihasini amalga oshirish to‘g‘risida

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish hamda ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida **buyuraman:**

1. “Zamin” xalqaro jamoat fondi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya agentligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi hamda Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining 2024-yil 23-fevraldagi “Eshitishni xohlayman!” qo‘shma loyihasi doirasida 2024-yilda belgilangan vazifalar ijrosi bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” (keyingi o‘rinlarda - “Yo‘l xaritasi”) imzolanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xorijiy hamkorlar tomonidan ko‘rsatiladigan ish va xizmatlarni xarid qilish tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi”ga asosan ajratilgan homiylik mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi inobatga olinsin.

3. “Eshitishni xohlayman!” qo‘shma loyihasi doirasida 2024-yilda belgilangan vazifalar bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni amalga oshirish bo‘yicha ishchi guruhi (keyingi o‘rinlarda – Ishchi guruhi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ishchi guruhi (F.Boqiyev, T.Komilov)ga:

“Yo‘l xaritasi”da belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi ustidan nazorat olib borish;

“Eshitishni xohlayman!” qo‘shma loyihasi doirasida maxsus ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha jalb etilgan xalqaro tashkilotlar va maslahatchilar faoliyatini muvofiqlashtirib borish;

loyihani amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan masala va muammolarni o‘z vaqtida bartaraf etish choralarini ko‘rish;

xalqaro standartlarga muvofiq innovatsion yondashuvlar asosida bolalarni o‘qitish va tarbiyalash uslublarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish vazifalari yuklatilsin.

5. Quyidagilar:

“Eshitishni xohlayman!” loyihasi doirasida konsalting va ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish uchun texnik topshiriq 2-ilovaga muvofiq;

“Eshitishni xohlayman!” qo‘shma loyihasi doirasida maxsus ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha jalb etilgan xalqaro tashkilotlar va maslahatchilar tomonidan ko‘rsatiladigan ish va xizmatlarni xarid qilish bo‘yicha Xarid komissiyasi tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘limi (J.Mannonov) texnik talablarga muvofiq qonunchilikda belgilangan tartibda xorijiy hamkorlar tomonidan ko‘rsatiladigan ish va xizmatlarni xarid qilish jarayonlarini tashkillashtirsin.

7. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi (X.Mirxodiyev) imzolangan shartnomalarga asosan o‘rnatilgan tartibda to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirsin.

8. Devonxona (H.Raximbayeva) ushbu buyruqni bir kun muddatda markaziy apparatning tegishli tarkibiy bo‘linmalari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga yetkazilishini ta‘minlasin.

9. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 3-may,
142 - son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2024-yil 3-maydagi
142-son buyrug‘iga
1-ILOVA

“Eshitishni xohlayman!” qo‘shma loyihasi doirasida 2024-yilda belgilangan vazifalar bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni amalga oshirish bo‘yicha ishchi guruhi
TARKIBI

T/r	F.I.SH.		Lavozimi
1.	F.Boqiyev	-	Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri o‘rinbosari, ishchi guruhi raisi
2.	J.Mannonov	-	Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i, a’zo
3.	R.To‘rayev	-	Bolalarni ijtimoiy himoya qilish va inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i, a’zo
4.	G.Toshmirzayeva	-	Bolalarni ijtimoiy himoya qilish va inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘limi bosh mutaxassisi, a’zo
5.	L.Gaynutdinova	-	O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi direktori, a’zo

Izoh:
Ishchi guruhi a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan yoxud zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2024-yil 3-maydagi
142-son buyrug‘iga
2-ILOVA

“Eshitishni xohlayman!” loyihasi doirasida konsalting va ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish uchun
TEXNIK TOPSHIRIQ

1. Buyurtmachi
O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (“MMTV”).
2. Xizmat ko‘rsatishning joyi.

3. Xizmatlar
“Men eshitishni xohlayman” loyihasi doirasida oliy ta’lim muassasalarida defektolog-pedagoglarni (surdopedagog) tayyorlash dasturlarini takomillashtirish, defektolog-pedagoglarni (surdopedagog) malakasini oshirish va defektolog-pedagog (surdopedagog) kasbini egallash uchun qayta tayyorlash bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish va amalga oshirishga ko‘maklashish xizmatlarini
4. Xizmatlar tarkibi

T/r	Xizmatlar	Muddat	Natija	Narxi
I.	**Pedagog-defektologni (surdopedagog) tayyorlash va ularning malakasini oshirish, shuningdek, pedagog-defektolog (surdopedagog) kasbiga qayta tayyorlash tizimlarini o‘rganish.**			
	O‘zbekiston Respublikasida dala ishlari jarayonini o‘tkazish qatorida, quyidagi holatlarni o‘rganish: oliy ta’lim tashkilotlaridagi alohida ta’limga ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar ixtisoslashtirilgan muassasalarida (Ixtisoslashtirilgan muassasalar) o‘qitish uchun pedagog-defektologlarni (surdopedagoglar) tayyorlash tizimi; pedagog-defektologlarni (surdopedagoglar) malakasini oshirish tizimi; “pedagog-defektolog (surdopedagog)” kasbini egallash uchun kadrlarni qayta tayyorlash tizimi	Yarim oylik maosh (avans) to‘lovini olgan kundan boshlab 30 kalendar kun	Holat bo‘yicha hisobot: a) oliy ta’lim tashkilotlaridagi Ixtisoslashtirilgan muassasalarda o‘qitish uchun kadrlar tayyorlash tizimlari, shu jumladan: ta’lim dasturlarining sifati; bitiruvchilarni tayyorlash sifati; b) o‘qituvchi-defektologlar (surdopedagoglar) malakasini oshirish tizimlari, shu jumladan: ta’lim dasturlarining sifati; tinglovchilarni qayta tayyorlash sifati. v) o‘qituvchi-defektolog (surdopedagog) kasbini egallash uchun kadrlarni qayta tayyorlash tizimlari, shu jumladan: ta’lim dasturlarining sifati; tinglovchilarni qayta tayyorlash sifati	-

T/r	Xizmatlar	Muddat	Natija	Narxi
II.	**Ixtisoslashtirilgan muassasalarda dars beradigan kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish**			
	Oliy ta'lim tashkilotlarida mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish			
	Toshkent davlat pedagogika universitetida o'qituvchi-defektolog (surdopedagog) mutaxassisligi bo'yicha tayyorgarlik kursining "Defektologiya" yo'nalishi bo'yicha o'quv dasturini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish	Xizmatlar ushbu jadvalning 1-bo'limida qabul qilingan kundan boshlab 75 kalendar kun ichida	Toshkent davlat pedagogika universitetida o'qituvchi-defektolog (surdopedagog) mutaxassisligi bo'yicha tayyorgarlik kursining "Defektologiya" yo'nalishi bo'yicha o'quv dasturini takomillashtirish bo'yicha takliflar, shu jumladan: yangilangan ta'lim dasturi; yangilangan o'quv-uslubiy qo'llanmalar yig'masi.	-
Defektolog (surdopedagog) o'qituvchilarining malakasini oshirish va defektolog (surdopedagog) o'qituvchisi kasbini egallash uchun qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish				
	O'qituvchi-defektologlar (surdopedagoglar) malakasini oshirish dasturini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.	Xizmatlar ushbu jadvalning 1-bo'limida qabul qilingan kundan boshlab 75 kalendar kun ichida	O'qituvchi-defektologlar (surdopedagoglar) malakasini oshirish dasturini takomillashtirish bo'yicha takliflar, shu jumladan: yangilangan ta'lim dasturi; yangilangan o'quv-uslubiy qo'llanmalar yg'masi.	-

T/r	Xizmatlar	Muddat	Natija	Narxi
	O‘qituvchi-defektolog (surdopedagog) kasbini egallash uchun qayta tayyorlash dasturini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.	Xizmatlar ushbu jadvalning 1-bo‘limida qabul qilingan kundan boshlab 75 kalendar kun ichida	O‘qituvchi-defektolog (surdopedagog) kasbini egallash uchun qayta tayyorlash dasturini takomillashtirish bo‘yicha takliflar,shu jumladan: yangilangan ta’lim dasturi; yangilangan o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yig‘masi.	-
III.	**Pedagog kadrlar uchun ixtisoslashtirilgan muassasalarda o‘qitish bilan bog‘iq fanlarni o‘qitish bo‘yicha treninglar o‘tkazish**			
	Toshkent davlat pedagogika universiteti professor-o‘qituvchilari uchun amaliy seminar-treninglar o‘tkazish.	MMTV bilan kelishilgan holda muddat belgilanadi	-	-
	Ixtisoslashtirilgan muassasalar o‘qituvchilari uchun o‘quv va amaliy seminar-treninglar o‘tkazish.	MMTV bilan kelishilgan holda muddat belgilanadi	-	-

5. Ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish shartlari

Ishtirokchi har bir bosqich kontekstida xizmatlar ko‘rsatish hajmi va metodologiyasi, xizmatlar ko‘rsatish joyi, talab qilinadigan mutaxassislar soni (ismi bo‘yicha), rezyume shaklida ularning malakasini shuningdek, xizmatlar narxini shakllantirish uchun asos sifatida ish soatlari va mutaxassislar sonini ko‘rsatuvchi xizmatlar ro‘yxatini taqdim etishi lozim.

Ishtirokchining qo‘shimcha xarajatlarini alohida miqdor sifatida taqsimlash bilan shartnoma bo‘yicha belgilangan xarajat. Ishtirokchining xizmat safarlari, turar joy, pochta jo‘natmalari va boshqalar bilan bog‘liq har qanday xarajatlari miqdori shartnomaning amal qilish muddati davomida o‘zgartirilishi mumkin bo‘lmagan qat’iy belgilangan miqdor

bilan cheklanishi kerak.

Jamoaning barqarorligi va shartnomaning butun muddati davomida loyihaga mas'ul bo'lgan asosiy menejerlarni saqlab qolish.

6. Ishtirokchiga qo'yiladigan talablar.

Ishtirokchi (ijrochi) sud jarayonida bo'lmasligi, mijozlar bilan o'z majburiyatlarini to'g'ri bajarish to'g'risida ish yuritish yoki unga nisbatan mijozlarga etkazilgan zarar yoki boshqa qarzlarni undirish uchun sud yoki arbitraj / asbob-uskunalar berilmasligi kerak.

Ishtirokchi (ijrochi) faoliyarini tugatish yoki ixtiyoriy tugatish jarayonida bo'lmasligi kerak.

Ishtirokchi ushbu loyihani amalga oshirish uchun yuqori malakali xodimlarga va etarli resurslarga ega bo'lishi kerak.

7. Til

Xizmatlar ko'rsatiladi va xizmatlar natijalari o'zbek tilida taqdim etiladi. Buyurtmachining so'ro'viga binoan xizmatlar va xizmatlarning natijalari ingliz yoki rus tillarida taqdim etililishi mumkin.

8. Sanalarni o'zgartirish

MMTV bilan kelishilgan holda, Xizmatlarni taqdim etish shartlarini uzaytirishga ruxsat beriladi.

9. Узбекистан O'zbekiston Respublikasiga sayohatlar bilan bog'liq xarajatlar

Ishtirokchi tomonidan O'zbekiston Respublikasiga Xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishga jalb qilingan xodimlar, Ishtirokchilar va boshqa shaxslarni yo'naltirish bilan bog'liq xarajatlari Ishtirokchi tomonidan qoplanadi.

10. Amaldagi qonunchilik

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi.

11. Ish va xizmatlar natijalarini topshirish va qabul qilish tartibi:

- ishlar va xizmatlar bajarilgandan so'ng, Tomonlar bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar aktlarini imzolaydilar

- Tomonlar tomonidan imzolangan hujjatlar bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarni etkazib berish uchun asosdir

Ishlar va xizmatlar sifati uchun kafolatlar hajmiga qo'yiladigan talablar. Xizmatlarni ko'rsatish natijalari to'liq hajmda ushbu Texnik talabda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va sifatiga qo'yiladigan talablarga javob berishi kerak.

Bajarilgan ishlarning xavfsizligi (maxfiyligi) va xizmatlar ko'rsatishga qo'yiladigan talablar. Ishtirokchi maxfiy ma'lumotlarning xavfsizligi

va xavfsizligini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'rishi kerak.

12. To'lov shartlari

Xizmatlarning umumiy narxining 15% miqdorida oylik maosh (avans) to'lanadi. Agar xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaning narxi O'zbekiston so'mining 1 milliardidan kam bo'lsa, oylik maosh (avans) to'lovi xizmatlarning umumiy narxining 30 foizi miqdorida amalga oshiriladi.

Xizmatlarning qolgan narxini to'lash ushbu texnik topshiriqning 3-qismida ko'rsatilgan xizmatlarning qismlarini taqdim etish natijalariga ko'ra amalga oshiriladi.

Xorijiy yetkazib beruvchilar uchun O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasidan to'lov kafolatini taqdim etish mumkin.

13. Intellektual mulk

Xizmatlar natijalari MMTV mulki xisoblanadi.

14. Nizolarni hal qilish

Iqtisodiy protsessual qonunchilikka muvofiq.

Xorijiy yetkazib beruvchilarning iltimosiga ko'ra Toshkent xalqaro arbitraj markazidagi xalqaro tijorat arbitrajidagi nizolarni Toshkent xalqaro arbitraj markazi arbitraj qoidalariga muvofiq ko'rib chiqish mumkin.

Hakamlar soni 3 taga teng bo'ladi. MMTV va ijrochi ("tomonlar") bittadan hakam tayinlaydi, tomonlar tomonidan tayinlangan hakamlar ("tayinlangan hakamlar") birgalikda uchinchi hakamni tayinlashadi. Agar tayinlangan sudyalar sudyanini tayinlay olmasalar, har bir tomon hakamni tayinlash uchun sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'ladi.

Arbitraj tili ingliz tilida bo'ladi.

15. Texnik nizolar

Texnik nizolarni hal qilish uchun tomonlar birgalikda texnik ekspertni tayinlashadi. Agar tomonlar kelishilgan muddatda texnik ekspert tayinlay

olmasalar, har bir tomon texnik ekspert tayinlash uchun sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'ladi.

Har bir tomon xizmatlarni ko'rsatish bilan bog'liq texnik masalalar bo'yicha ekspert xulosasini olish uchun texnik masalalar bo'yicha mutaxassisga murojaat qilish huquqiga ega ("xulosa") va boshqa tomondan texnik masalani ko'rib chiqishda texnik mutaxassis bilan ishtirok etishni talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2024-yil 3-maydagi
142-son buyrug‘iga
3-ILOVA

“Eshitishni xohlayman!” qo‘shma loyihasi doirasida maxsus ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha jalb etilgan xalqaro tashkilotlar va maslahatchilar tomonidan ko‘rsatiladigan ish va xizmatlarini xarid qilish bo‘yicha Xarid komissiyasi
TARKIBI

T/r	F.I.SH.		**Lavozimi**
1.	F.Boqiyev	-	Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri o‘rinbosari, komissiya raisi
2.	O.Ibrohimov	-	Yuridik boshqarma bosh yuriskonsulti, a’zo
3.	F.Keldibekov	-	Protokol bo‘limi boshlig‘i, a’zo
4.	A.Xolmuxamedov	-	Ta’lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti direktorining birinchi o‘rinbosari, a’zo
5.	J.Mannonov	-	Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i, xarid komissiyasi raisi o‘rinbosari, a’zo
6.	A.Shernazarov	-	Xo‘jalik bo‘limi boshlig‘i, a’zo
7.	R.To‘rayev	-	Bolalarni ijtimoiy himoya qilish va inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i, a’zo
8.	Sh.Yeshnazarov	-	Xarid komissiyasi kotibi (ovoz berish huquqiga ega emas)

Izoh:

Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan yoxud zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida yuritiladigan o‘quv-pedagogik hujjatlarni maqbullashtirish to‘g‘risida

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida yuritiladigan o‘quv-pedagogik hujjatlarni maqbullashtirish, boshqaruv jarayonini ortiqcha qog‘ozbozlikdan xoli etish orqali samaradorlikka erishish va boshqaruv jarayonlarini shaffofligini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. 2024-2025-o‘quv yilidan boshlab barcha umumiy o‘rta ta’lim maktablarida:

a) quyidagi o‘quv-pedagogik hujjatlar elektron shaklda yuritilsin:

pedagogik kengash bayonnomalari;

o‘quvchilar harakatiga oid buyruqlar;

elektron sinf jurnali;

o‘quvchining elektron baholar tabeli;

maktab bitiruvchilariga berilgan shahodatnomaning hisobot reyestri;

qoldirilgan va o‘rni to‘ldirilgan darslarni hisobga olish reyestri.

b) quyidagi o‘quv-pedagogik hujjatlarni yuritish bekor qilinsin:

shahodatnoma va sertifikatlarni hisobga olish hamda tarqatish daftari;

qoldirilgan va o‘rni to‘ldirilgan darslarni hisobga olish daftari;

o‘quvchilar harakati daftari;

buyruqlar daftari;

maktab pedagogik jamoasining shaxsiy tarkibini qayd etish daftari.

2. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quv-pedagogik hujjatlarni yuritish bo‘yicha tavsiyalar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (E.Murodov) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari (keyingi o’rinlarda - hududiy boshqarmalar) bilan birgalikda:

umumiy o‘rta ta’lim maktablarida maqbullashtirilgan o‘quv-pedagogik hujjatlar yuzasidan targ‘ibot ishlarini olib borsin hamda hujjatlarni qog‘oz shaklida yuritishdan tejalgan vaqtda ta’lim boshqaruvi samaradorligini oshirish va sifatli ta’limni ta’minlashga alohida e’tibor qaratsin;

tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari va boshqa tashkilotlar tomonidan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quv-pedagogik hujjatlarni qog‘oz shaklida yuritishni talab etilishiga yo‘l qo‘yilmasligini qat’iy nazoratga olsin.

4. Elektron kundalik “emaktab.uz” platformasini muvofiqlashtiruvchi mas’ul xodim (A.Rahmonqulov):

2024-yil 1-iyunga qadar “Kundalik” MCHJ bilan birgalikda “emaktab.uz” platformasida elektron baholar tabeli modulini yaratish choralarini ko‘rsin;

2024-yil 10-iyunga qadar “emaktab.uz” platformasi orqali umumiy o‘rta ta’lim maktablarida elektron baholar tabeli modulini tajriba-sinovdan o‘tkazsin va tizimdan foydalanish yo‘riqnomasini tayyorlasin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2021-yil 1-iyuldagi “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quv-pedagogik hujjatlar yuritilishini maqbullashtirish to‘g‘risida”gi 205-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 3-yanvardagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan 2024-yilda amalga oshiriladigan davlat xaridlari to‘g‘risida”gi 1-sonli buyrug’ining 8-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish bo‘limi (I.Xoldarova) joriy yilning 1-iyuniga qadar 2024-yilda “Barkamol avlod” bolalar maktablari uchun to‘garak jurnalining texnik tafsilotlari, miqdori va taqsimoti to‘g‘risida ma’lumotlarni “Ta’minot va logistika xizmati” davlat unitar korxonasiga taqdim etsin.”.

7. Axborot xizmati (D.Sobirova) umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quv-pedagogik hujjatlar yuritilishi maqbullashtirilganligini ommaviy axborot vositalari, vazirlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali keng jamoatchilikka yetkazsin.

8. Devonxona (H.Raximbaeva) ushbu buyruqni bir kun muddatda departament, boshqarma va bo‘limlar hamda hududiy boshqarmalarga yetkazilishini ta’minlasin.

9. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 17-may,
163-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2024-yil 17-may
163-sonli buyrug‘iga
ILOVA

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quv-pedagogik hujjatlarni yuritish bo‘yicha tavsiyalar

Mazkur tavsiyalar umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quv-pedagogik hujjatlarni (keyingi o‘rinlarda – maktab hujjatlari) yuritish va ularni saqlash tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida (keyingi o‘rinlarda – maktab) quyidagi maktab hujjatlari elektron shaklda yuritiladi:

pedagogik kengash bayonnomalari;

o‘quvchilar harakatiga oid buyruqlar;

elektron sinf jurnali;

o‘quvchining elektron baholar tabeli;

qoldirilgan va o‘rni to‘ldirilgan darslarni hisobga olish reyestri;

maktab bitiruvchilarga berilgan shahodatnomaning hisobot reyestri.

2. Pedagogik kengash bayonnomalari, o‘quvchilar harakatiga oid buyruqlar, qoldirilgan va o‘rni to‘ldirilgan darslarni hisobga olish reyestri, maktab bitiruvchilarga berilgan shahodatnomaning hisobot reyestri va elektron sinf jurnali qat‘iy hisobda turuvchi hujjatlar hisoblanadi.

3. Maktab hujjatlarining to‘g‘ri yuritilishi va saqlanishi bo‘yicha javobgarlik maktab direktori zimmasiga yuklatiladi.

Maktab direktorining buyrug‘i bilan maktab hujjatlarini bevosita yuritish uchun mas’ul shaxslar tayinlanadi.

4. Maktab direktori o‘zgarganda dalolatnoma asosida maktab hujjatlari yangi tayinlangan direktor (yoki vaqtincha vazifasini bajaruvchi) ga topshiriladi.

5. Maktab faoliyati tugatilganda yoki qayta tashkil etilganda maktab hujjatlari tegishli davlat arxiviga yoki muassasaning huquqiy vorisiga dalolatnoma asosida topshiriladi.

2-bob. Pedagogik kengash bayonnomalarini yuritish

6. Pedagogik kengash bayonnomalari “Umumiy o‘rta ta’lim muassasasining pedagogik kengashi to‘g‘risidagi namunaviy nizom”da (Adliya vazirligi tomonidan 2016-yil 9-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 2799) belgilangan tartibda yuritiladi.

7. Pedagogik kengash yig‘ilishi har chorakda kamida bir marta o‘tkaziladi. Zaruratga ko‘ra, navbatdan tashqari yig‘ilishlar o‘tkazilishi mum-

kin.

8. Pedagogik kengash bayonnomasi va qarorini yuritish uchun pedagogik jamoa orasidan ko‘pchilik ochiq ovoz berish yo‘li bilan kengash kotibi saylanadi.

9. Pedagogik kengash bayonnomasi elektron shaklda (matn ko‘rinishida) tayyorlanib, Kengash raisi va kotibi tomonidan imzolanadi hamda muhr bilan tasdiqlanadi.

10. Bayonnomalarning tartib raqami har o‘quv yili boshidan belgilanib, navbatdan tashqari pedagogik kengash yig‘ilishlari ham shu ketmaketlikda raqamlanib boriladi.

11. Pedagogik kengash bayonnomalari maktab ma’muriyati va pedagogik jamoa uchun bajarilishi majburiy bo‘lgan hujjat hisoblanib, uning ijrosini nazorat qilish Kengash raisi zimmasiga yuklatiladi.

12. Pedagogik kengash bayonnomasi yig‘ma jildlar (reyestr)da tikib boriladi.

13. Pedagogik kengash bayonnomalari doimiy saqlanadi, tayyorlangan tahliliy materiallar uch yil mobaynida saqlanadi hamda tegishli arxivga topshiriladi.

3-bob. O‘quvchilar harakatiga oid buyruqlarini yuritish

14. O‘quvchilar harakatiga oid buyruqlar maktabning birinchi sinfiga hamda o‘quv yili yoki ta’til davomida maktabga qabul qilingan yoki maktabdan ketgan o‘quvchilar hisobini yuritish uchun rasmiylashtiriladi.

15. O‘quvchilarga oid buyruqlarning yuritilishiga maktab direktorining o‘quvtarbiya ishlari bo‘yicha o‘rinbosari mas’ul hisoblanadi.

16. O‘quvchilar harakatiga oid buyruqlar elektron shaklda (matn ko‘rinishida) tayyorlanadi va maktab direktori tomonidan imzolanadi hamda yig‘ma jild (reyestr)da tikib boriladi.

17.O‘quvchilar harakatiga oid buyruqlar maktabda **50 yil muddatda** saqlanadi.

18. Asosiy faoliyatga doir va kadrlar faoliyatiga oid buyruqlar Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy yo‘riqnomalar asosida yuritiladi.

4-bob. Qoldirilgan va o‘rni to‘ldirilgan darslarni hisobga olish reyestrini yuritish

19. Turli sabablarga ko‘ra (kasallik varaqasida, malaka oshirishda va h.k) o‘qituvchilar tomonidan qoldirilgan darslar va uning o‘rni to‘ldirilgan darslar buyruq bilan rasmiylashtiriladi.

20. Mazkur buyruqni rasmiylashtirishda tegishli hujjatlar (elektron sinf jurnallarida qayd etilgan yozuvlar, mehnatga layoqatsizlik varaqasi, xodimning bildirishnomasi va h.k) asos bo‘lib hisoblanadi.

21. Buyruqda sana, sinf, fan, dars o‘tishi lozim bo‘lgan o‘qituvchining familiyasi, ismi, sharifi, darsni qoldirish sababi, o‘rniga dars o‘tgan o‘qituvchining familiyasi, ismi, sharifi, dars soati to‘g‘risidagi ma’lumotlar

kiritiladi.

22. Qoldirilgan va o‘rni to‘ldirilgan darslar to‘g‘risidagi buyruq xodim bildirishnoma bergan kundan 3 kundan oshmagan holda rasmiylashtiriladi.

23. Buyruqdagi yozuvlar ish vaqtini va ish haqini hisobga olish tabeli, elektron sinf jurnalidagi yozuvlarga mos bo‘lishi shart.

24. Qoldirilgan va o‘rni to‘ldirilgan darslar to‘g‘risidagi buyruqlar elektron shaklda (matn ko‘rinishida) tayyorlanadi va maktab direktori tomonidan imzolanadi hamda yig‘ma jild (reyestr)da tikib boriladi

Qoldirilgan va o‘rni to‘ldirilgan darslar to‘g‘risidagi buyruqlar maktabda **5 yil muddatda** saqlanadi.

25. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish maktab direktorining o‘quv-tarbiya ishlari bo‘yicha o‘rinbosariga yuklatiladi.

5-bob. Maktab bitiruvchilarga berilgan shahodatnomalarning hisobot reyestrini yuritish

26. Maktab bitiruvchilariga berilgan shahodatnomalarning hisobot reyestri O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-yanvardagi 44-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida elektron shahodatnomalarni berish tartibi haqidagi nizomga muvofiq shakllantiriladi.

27. Maktablar har yili 1-iyulga qadar bitiruvchilarga berilgan shahodatnomaning hisobotlarini Elektron shahodatnoma platformasidan yuklab oladi va reyestrini yuritib boradi.

28. Maktab bitiruvchilarga berilgan shahodatnomaning hisobot reyestrida quyidagi davlat namunasidagi hujjatlar ro‘yxatga olinadi:

a) maktabning 11-sinf bitiruvchilariga berilgan “Umumiy o‘rta ma’lumot to‘g‘risida” shahodatnoma, shu jumladan, oltin va kumush medal bilan berilgan shahodatnomalar;

b) maktabning 9-sinf bitiruvchilariga berilgan “Tayanch ma’lumot to‘g‘risida” shahodatnoma, shu jumladan, a’lo darajali shahodatnomalar;

v) imkoniyati cheklangan bolalar uchun mo‘ljallangan maxsus maktabning bitiruvchilariga maktabni tamomlaganligi haqida sertifikatlar;

g) eksternat tartibida yakuniy davlat attestatsiyalarni muvaffaqiyatli topshirgan fuqarolarga berilgan shahodatnomalar.

29. Maktab bitiruvchilarga berilgan shahodatnomaning hisobot reyestrida bitiruvchining familiyasi, ismi, sharifi, tug‘ilgan sanasi, shaxsini tasdiqlovchi hujjat seriyasi va raqami, jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR), tamomlagan sinfi, shahodatnoma yoki sertifikat seriyasi va raqami, shahodatnoma yoki sertifikatda qayd etilgan fanlar bo‘yicha yakuniy baholari, berilgan vaqti qayd etiladi.

30. Maktab bitiruvchilarga berilgan shahodatnomaning hisobot reyestri hamda 2022-2023 o‘quv yiliga qadar yuritilgan Shahodatnoma va sertifikatni hisobga olish hamda tarqatish daftari maktabda **75 yil mud-**

datda saqlanadi.

6-bob. Elektron sinf jurnalini yuritish

31. Elektron sinf jurnali davlat ta'lim standartlari hamda o‘quv dasturlarining bajarilishini aks ettiruvchi davlat hujjati hisoblanadi.

32. Elektron sinf jurnalida tayanch o‘quv reja asosida o‘tilgan darslar, o‘quvchilarning o‘zlashtirishi, o‘tilgan mavzular, o‘quvchilarning davomat, uyga berilgan vazifa va boshqa ma'lumotlar qayd etiladi.

33. Maktab direktorining o‘quv-tarbiya ishlari bo‘yicha o‘rinbosari elektron sinf jurnalining o‘z vaqtida va to‘g‘ri yuritilishini nazorat qiladi.

34. Elektron sinf jurnallari Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan tavsiyalarga muvofiq, “emaktab.uz” platformasida elektron shaklda yuritib boriladi.

O‘quv yili yakunida elektron sinf jurnallarining fan sahifalaridagi chorak va yillik yakuniy baholari “emaktab.uz” platformasidan chop etilib, maktabda **11 yil muddatda** saqlanadi.

7-bob. O‘quvchining elektron baholar tabelini yuritish

35. O‘quvchining elektron baholar tabeli “emaktab.uz” platformasida yuritiladi va mazkur tavsiyaga ilova qilingan namunada shakllantiriladi.

36. Elektron baholar tabeliga quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

o‘quvchining familiyasi, ismi, sharifi;

tug‘ilgan sanasi;

ta'lim olayotgan maktabi va sinfi;

o‘quv yili va o‘quv fanlari;

chorak, yillik baholari, yakuniy nazorat bali, yakuniy bahosi;

maktab direktori va sinf rahbarining familiyasi, ismi, sharifi hamda baholar tabeli tasdiqlangan sanasi.

37. Elektron baholar tabeliga kiritilgan ma'lumotlar va baholarning haqqoniyligi uchun maktab direktori javobgar hisoblanadi.

38. Elektron baholar tabeli “emaktab.uz” platformasi orqali maktab direktori tomonidan har o‘quv yili yakunida shakllantiriladi va yuklab olinib elektron shaklda kompyuterda saqlanadi.

Zaruratga ko‘ra, o‘quvchi boshqa maktabga ko‘chirilganda ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning arizasiga binoan elektron baholar tabeli o‘quv yili davomida ham shakllantirish mumkin.

39. Elektron baholar tabeli 2024-2025-o‘quv yiliga qadar qog‘oz shaklida yuritilgan o‘quvchilarning baholar tabeliga tikib boriladi.

8-bob. Yakuniy qoidalar

40. Zaruriyatga ko‘ra, sinf rahbarlari tomonidan o‘quvchilar to‘g‘risidagi ma'lumotlar (tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomasi, yashash manzili, ota-onasi va boshqa) “Yagona elektron tizim - erp.maktab.uz” dasturidan belgilangan tartibda yuklab olinishi mumkin.

42. O‘quvchining sog‘lig‘i to‘g‘risida tibbiy ma'lumotnomasi tibbiyot

muassasalari tomonidan maktabga biriktirilgan tibbiyot xodimlari tomonidan yuritiladi va ular uchun ajratilgan xonada saqlanadi.

43. Maktabning tashkiliy boshqaruviga oid hujjatlar quyidagilardan iborat:

maktabni tashkil etish bo‘yicha mahalliy davlat hokimligi qarori nusxasi;

maktabning yuridik shaxs sifatida guvohnomasi;

kadastr hujjatlari;

maktab ustavi;

davlat akkreditatsiyasidan o‘tganligi haqida guvohnomasi;

tayanch o‘quv rejasi (joriy o‘quv yili uchun);

maktabga biriktirilgan mikrohudud bo‘yicha tuman (shahar) hokimligi qarori nusxasi.

44. Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari tomonidan maktab hujjatlarining to‘g‘ri yuritilishini muvofiqlashtirib, amaliy yordam berib boradi.

Zaruriyatga ko‘ra, moliya-taftish va huquqni muhofaza etuvchi idoralarning rejali tekshiruvlari asosida maktab hujjatlarining yuritilishi nazorat tartibida tekshirilishi mumkin.

45. Maktab hujjatlarini qalbakilashtirgan, ularga bila turib yolg‘on ma’lumotlar kiritgan mas’ul shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishiga sabab bo‘ladi.

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o‘rinbosari;
Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

TAHRIR HAY’ATI:
Xilola UMAROVA, Risboy JO‘RAYEV, Xolboy IBRAGIMOV, G‘ayrat SHOUMAROV, Ulug‘bek INOYATOV, Oynisa MUSURMONOVA, Shukurullo MARDONOV, Saidaxbor BULATOV, Ulfat MAHKAMOV, Barno ABDULLAYEVA, Dilyara SHARIPOVA, Lola MO‘MINOVA, Maqsudjon YULDASHEV, Mirodiljon BARATOV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV, Yashin ISMANDIYAROV, Sharibboy ERGASHEV, Alisher UMAROV, Shaxnoza XALILOVA, Muhayyo UMARALIYEVA

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Sobitxon TURG‘UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Kamola RISKULOVA, Islom ZOKIROV

Tahririyat manzili:
Toshkent shahar Shayxontohur tumani Navoiy ko‘chasi 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: (0 371) 231-16-52

Jurnal O‘zMAA tomonidan 2015-yil 3-iyunda ro‘yxatga olinib, 0852-raqamli guvohnoma berilgan.

Buyruq va ularning ilovalari to‘liq, o‘zgartirishsiz chop etilmoqda. Jurnal tahririyatning kompyuter bo‘limida terilib, sahifalandi.

“Sano-standart” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Olmazor tumani Shiroq ko‘chasi, 100-uy.

Bosishga ruxsat etildi: 00. 00. 2020-y. Qog‘oz bichimi 84x108 $^{1}/_{32}$.
Ofset bosma usuli. Shartli b.t. 7,0. Adadi ------ nusxa.
-buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

© “Xalq ta’limi axborotnomasi”, 2024.